

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

MAMATKARIMOV BEKZOD JO‘RAEVICH

**QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INI BYUDJETGA
UNDIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI
BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrası mudiri

i.f.d., professor Jo‘raev A.S. _____

“ ____ ” _____ 2014 y.

Bitiruvchi: Mamatkarimov B.J.

Ilmiy rahbar: dots. Usmanova M.S. _____

TOSHKENT - 2014

MUNDARIJA

	Betlar
KIRISH.....	3
I BOB. QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INING NAZARIY JIHATLARI VA UNING O`ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA TUTGAN O`RNI.....	7-33
1.1. Qo`shilgan qiymat solig`ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	7
1.2. Qo`shilgan qiymat solig`inining O`zbekiston soliq tizimida tutgan o`rni.....	13
1.3. Qo`shilgan qiymat solig`ini undirishda xorijiy davlatlar tajribasi.....	23
II BOB. MAMLAKATIMIZDA QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INI BUDJETGA UNDIRISH MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (Angor tuman DSI ma'lumotlari asosida).....	34-56
2.1. Qo`shilgan qiymat solig`ining to`lovchilari, soliq obykti va soliq bazasini aniqlash tartibi tahlili.....	34
2.2. Qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari va soliqdan imtiyozlar tahlili.....	39
2.3. Qo`shilgan qiymat solig`ini budjetga to`lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari.....	50
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INI UNDIRISH MEXANIZMINING TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI.....	56-64
3.1. Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash va budjetga to`lash mexanizmidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish masalalari.....	56
3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qo`shilgan qiymat solig`ini budjetga undirish tartibini takomillashtirish.....	60
XULOSA.....	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	67
ILOVALAR.....	73

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy yo`naltirilgan, ochiq iqtisodiy siyosatga va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan bozor iqtisodiyotida o`tish sharoitida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida soliq munosabatlarini takomillashtirish, jumladan, qo`shilgan qiymat solig`i va uning amal qilish mexanizmini ilmiy tahlil qilish o`ta muhim zaruriyat hamda murakkab muammolardan biri bo`lib hisoblanadi. Yuqorida bildirilgan fikrlarning nechog`li haqiqatga yaqinligini davlatimiz harbari I.Karimovning quyida bildirgan fikrlarida ham ko`rish mumkin: “Soliq yukini yanada kamaytirish, jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig`i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday soliq yengilliklari 130 milliard so`mdan ortiq mablag`ni tejash va uni korxonalar ixtiyorida qoldirib, ularning o`z aylanma mablag`larini ko`paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, aholi daromadlarini 90 milliard so`mdan ko`proq oshirish imkonini beradi¹”.

Xo`jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida, ayniqsa uning eng katta turi bo`lgan qo`shilgan qiymat solig`ini undirish tartibini takomillashtirish orqali rag`batlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki deyarli barcha tovarlar ishlab chiqarishdan to iste`molchiga yetib borguncha bo`lgan jarayonda hech bo`lmasa bir marta qo`shilgan qiymat solig`iga tortilishi shubhasizdir.

O`zbekiston Respublikasi istiqlol yillarida ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonida bosqichma-bosqich mustaqil soliqlar tizimini barpo etdi. Bu jarayonda eski, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos kelmaydigan

¹ Karimov I.A. 2014-yil yuqori o`rish sur`atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o`zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo`ladi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan majlisidagi ma`ruzasi. //Xalq so`zi gazetasi, 18-yanvar 2014-yil, 13-son

solliqlar (oborot solig'i, foydadan ajratma, o'rmon solig'i va hokazolar) tugatildi va bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan yangi soliq tizimi joriy etildi.

Demak, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaviy va soliq munosabatlarini takomillashtirish o'ta muhim va murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Respublika soliq tizimidagi o'zgarishlar bu masalaning ijobiy ham etilishi, turli xil yo'llar orqali amalga oshirilishini amalda ko'rsatmoqda. Bu borada soliq siyosatini erkinlashtirish mazkur sohalarda erishiladigan yutuqlar garovidir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas.

Qo'shilgan qiymat solig'iga davrimizning ko'pchilik iqtisodchi olimlari turlicha ta'rif berib kelmoqdalar, lekin shu ta'riflarni barchasi mazmuni va mohiyati jihatidan bir xil hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish yoki muomalaning har bir bosqichida qo'shilgan qiymat qismidan undiriladi. Qo'shilgan qiymatga ish haqi, amortizatsiya, kredit uchun foiz, elektr energiyaga, transportga, reklamaga ketgan sarf xarajatlar kiradi. Bittagina Tovar boshqatdan sotilayotgan bo'lsa, soliq xarid va sotish narxлари o'rtasidagi ayirmani hosil qiluvchi qo'shilgan qiymatdan hisoblanadi. So'ngra bu soliq tovarning uzil-kesil narxiga qo'shiladi, ya'ni bunda ishlab chiqaruvchini emas, balki iste'molchining daromadi soliq solish obyekti bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i respublikada joriy qilingan soliqqa tortishning eng murakkab, ko'p qirrali va nisbatan kam takomillashgan qismidir. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatilganda aksariyat yangi hosil qilingan qiymatdan (foyda, amortizatsiya ajratmasi, mehnat haqi fondi) kelib chiqib budjet daromadiga o'tkazishning bir shaklidir.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lib qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga undirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish va tahlil qilish. Ishning predmeti bo'lib qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga undirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish va tahlil qilish

jarayonida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yig'indisidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati va ahamiyati, soliq obyekti va bazasining aniqlash tartibi, soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibini amaliy materiallarga tayangan holda tahlil etish hamda iqtisodchi olimlarning bu sohadagi ilmiy tadqiqotlari hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish asosida mazkur soliqning hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Ishning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirilgan:

- qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini yoritish;
- qo'shilgan qiymat solig'ining O'zbekiston soliq tizimida tutgan o'rnini o'rganib chiqish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini undirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish va uni tahlil qilish.
- qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari soliq obe'kti va soliq bazasini aniqlash tartibini o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va soliqdan imtiyozlar bilan tanishish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlarini o'rganish;
- qo'shilgan qiymat solig'ini undirishdagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etishni o'rganish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga undirish tartibini takomillashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, sakkizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan. Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida qo'shilgan qiymat soli'ining nazariy jihatlar va unig O'zbekiston soliq tizimida tutgan o'rni izohlangan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirish mexanizmining amaldagi xolati tahlili keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari atroflicha o'rganilgan.

Ishning xulosa qismida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi sub'ektlarni rag'batlantirishda soliqlarning rolini oshirishga qaratilgan xulosalar bayon qilinib, taklif va tavsiyalar umumlashtirilgan.

I BOB. QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INING NAZARIY JIHATLARI VA UNING O`ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA TUTGAN O`RNI.

1.1. Qo`shilgan qiymat solig`ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Ma`lumki, egri soliqlar mahsulot bahosiga yoki xizmat ta`rifiga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlar tovarning yoki xizmatning bahosida xisobga olinganligi uchun ularni pirovard to`lovchisi bo`lib, iste`molchi hisoblanadi. Egri soliq hisoblangan qo`shilgan qiymat solig`i o`zining iqtisodiy mohiyatiga ko`ra, sotilgan mahsulotlar, ko`rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste`mol qilingan oraliq tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o`rtasidagi farqdan iboratdir².

Mazkur soliq birinchi marta 1954-yilda fransuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan taklif qilingan bo`lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ko`pgina davlatlarda muvaffaqiyatli qo`llanib kelinmoqda. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Fransiya, Shvetsariya) da 60-yillarning oxirida, (Belgiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiyada) 70-yillarning boshlarida qo`shilgan qiymat solig`i joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda.

Qo`shilgan qiymat solig`i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirib kelinmoqda. Mustaqil Davlatlar hamdo`stligiga (MDH) kirgan barcha davlatlarda 1992-yildan boshlab qo`shilgan qiymat solig`i joriy etilgan. Shu jumladan, O`zbekuiston Respublikasida ham qo`shilgan qiymat solig`i 1992-yildan boshlab O`zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to`g`risida”gi qonun asosida joriy etildi.

² Jo`rayev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo`llari. –T.: “FAN”, 2004. 111-112 betlar

Ko'pgina mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i davlat soliq daromadlarining 12 foizdan 30 foizgacha bo'lgan daromad qismini qoplaydi, ya'ni yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 5-10 foizini tashkil etadi.

O'zbekistonda 1992-yildan beri qo'llanib kelinayotgan qo'shilgan qiymat solig'i (aksiz solig' bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o'rnini to'liq almashtirdi. Ammo, qo'shilgan qiymat solig'i o'zining o'zni bo'yicha budjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan o'tib ketdi. Qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanila boshlangan vaqtdan hozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati budjetining asosiy manbalaridan biriga aylandi.

Har bir iqtisodiy kategoriyaning mohiyati unga berilgan ta'riflar yordamida ochib beriladi. Shu tufayli qo'shilgan qiymatning iqtisodiy mohiyatini yoritishda, unga mumtoz va hozirgi zamon iqtisodchi olimlarining bergan ta'riflari muhim ahamiyatga egadir.

Amerikalik iqtisodchilar S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzilarning fikriga ko'ra, “qo'shilgan qiymat” – bu firmaning sotuv hajmidan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sotib olingan materiallarning qiymati chegirib tashlangandan keyingi qolgan qismidir³.

Amerikalik olim Jefri Saks va chililik olim Felipe Larrenlar qo'shilgan qiymat haqida so'z yuritib, “firmaning jami (yig'ma) daromadidan boshqa firmalardan kelib tushganlar (materiallar) chegirib tashlansa, firmaning qo'shilgan qiymatiga teng bo'ladi” degan ta'rifini keltiradi va buni quyidagi tenghlik bilan ifodalaydi:

$$\begin{aligned} \text{Oxirgi talab} &= \text{qo'shilgan qiymat} = \\ &= \text{Mehnat haqi} + \text{Kapital daromadi} \end{aligned}$$

³ Fisher S, Dornbush R, Shmalenzi R. Economics – M: “Delo”, 1997, - 435-b

Yopiq iqtisodiyot modeliga xos bo'lgan bu tenglik mamlakat miqyosida oxirgi talab firmalarning qo'shilgan qiymatlari yig'indisiga teng.

Yana bir mashhur amerikalik olim N.Gregori Menkyu o'zining "Ekonomiks tamoyillari" deb nomlangan asarida (bu kitobni XXI-asr darsligi deb ham atashadi) bevosita qo'shilgan qiymatga ta'rif bermagan bo'lsa-da, uning shakllanishiga to'xtab o'tgan. "Firma tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish natijasida tushgan pul mablag'lari miqdori firmaning yalpi daromadi deb ataladi. Firma tomonidan ishlab chiqarish resurlarini sotib olishga yo'naltirilgan pul mablag'lari miqdori firmaning jami xarajatlari deb ataladi. Biz firma foydasini uning yalpi daromadi bilan jami xarajati o'rtasidagi farq sifatida topamiz". Agarda biz firmaning foydasiga yollangan ishchilarga berilgan ish haqini qo'shsak, u holda firmaning qo'shilgan qiymati kelib chiqadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, firmaning egasi o'zi ham ish haqi sifatida maosh oladigan bo'lsa, firmaning foydasi shu miqdorga kamayadi, lekin firmaning qo'shilgan qiymati miqdori o'zgarmaydi. Demak, firmaning faoliyatiga baho berishda qo'shilgan qiymat foydaga nisbatan keng va umumlashgan kategoriya hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymatga berilgan ta'riflar xilma-xildir. Lekin ma'no jihatdan bir-biriga yaqin turadi. Masalan, amerikalik olimlar M.Parkin va D.Kinglar bergan ta'rif quyidagicha: "qo'shilgan qiymat bu firmaning ishlab chiqargan mahsulotlari qiymatidan boshqa firmalardan sotib olingan oraliq tovarlar qiymati ayirib tashlanganidir".

Qo'shilgan qiymatga respublikamiz olim va mutaxassislaridan ham bir nechtasi ta'rif berib o'tgan. Professor T.S.Malikov bu haqda to'xtalib, "qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyatini to'liq idrok etish uchun tarkibiga xomaashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy va qo'shimcha ish haqi (ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar bilan birgalikda), asosiy fondlarning amortizatsiyasi va boshqa xarajatlarning qiymati kiruvchi ishlab chiqarish xarajatlarining elementlariga murojaat qilmoq zarur. Ko'rsatilgan moddiy xarajatlardan buyumlashgan mehnatni o'zida gavdalantirganlarning barcha

elementlari boshqa korxonalarda ishlab chiqarilgandir. Asosiy va qo'shimcha ish haqi (ijtimoiy ehtiyojlarga hisoblashlar bilan birgalikda) esa jonli mehnat bilan shu korxonaning o'zida yaratiladi va ular qo'shilgan (o'stirilgan) qiymat hisoblanadi. Tabiiyki, mahsulotlar va tovarlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlarini qoplaydigan va korxonaning foyda olishiga imkon beruvchi baholarda realizatsiya qilinadi va u ham shu korxona ishchilarining mehnati bilan yaratiladi hamda qo'shilgan qiymatga tegishli bo'ladi. Bu yerda qo'shilgan qiymat o'zida qayta ishlash xarajatlarini va eng avvalo, mehnat haqi xarajatlarini gavdalantirishi ma'lum bo'ladi. Qo'shilgan qiymatning tarkibiga yuqoridagilardan tashqari, amortizatsiya va ishlab chiqarish sikli bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarning boshqa elementlari ham kiradi"⁴ – deydi. Bu ta'rifda olim qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish jarayonida yaratilishi va u o'z ichiga qanday elementlarni olishini batafsil bayon etadi. Qo'shilgan qiymatni ta'riflash uchun o'stirilgan qiymat iborasidan foydalanadi. Bundan tashqari respublikamiz olimlaridan D.Tojiboyevaning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “qo'shilgan qiymat bu har bir korxona, firma tomonidan yaratilgan mahsulotning bozor narxida ifodalangan hajmi bo'lib, undan sotib olib ishlatilgan xomashyo, materiallar chegirib tashlanadi”⁵. Ushbu ta'rif ham oldingi chet el olimlari fikrlaridan keskin farq qilmasa-da, lekin qo'shilgan qiymatni ta'riflashda yaratilgan mahsulot hajmiga ko'proq urg'u berilgan.

Shunday qilib, qo'shilgan qiymat solig'iga va uning negizi hisoblangan qo'shilgan qiymat kategoriyasiga mumtoz va hozirgi zamon olimlarining bergan ta'riflarini umumlashtirgan holda aytisdh mumkinki, qo'shilgan qiymat deganda ashyoviy resurslar xarid bahosiga xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qo'shilgan, tovar va xizmatlarning bozorda sotilish narxiga kirgan ustama qiymat tushuniladi. Qo'shilgan qiymat bu ishlab chiqarishning pirovard natijasidir. Demak, qo'shilgan qiymat – bu tovar va xizmatlar bozor narxining bir qismidir, aniqrog'i, tovar va xizmatlarning bozor narxidan, ushbu tovar va

⁴ Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: “Akademiya”, 2002. 14-b.

⁵ Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: “Sharq”, 2003. 47-b.

xizmatlarni ishlab chiqarish yoxud tashkil etish uchun foydalanilgan moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar narxi ayirib tashlangandan keyin qolgan qismidir. Binobarin, qo`shilgan qiymat solig`i bu xo`jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sotilgan tovar, bajarilgan ish va xizmatlarning bozor narxiga nisbatan hisoblangan bilvosita soliqdir.

Qo`shilgan qiymat solig`i – ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste`molchiga sotishgacha bo`lgan jarayonda har ibr sikldan olinadigan bilvosita ko`p pog`onali soliqdir. Uning obyekti qo`shilgan qiymat, ya`ni mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xom ashyo, materiallar yoki mahsulotlar qiymatiga qo`shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq mahsulot narxining barcha usullarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi.

Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur`atlari haqida ma`lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini yengillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarning aholi – soliqning mazkur turning yagona va oxirgi to`lovchisiga sotilishiga qadar daromad olish imkoniga ega bo`ladi.

Qo`shilgan qiymat solig`iga asoslangan soliq to`lash tizimi soliqlarni qismlarga ajratib olish imkonini beradi, chunki firmaning barcha sotuvlaridan soliq olinadi, biroq oraliqdagi xaridlar uchun to`langan soliqlar keyinchalik umumiy summadan qoplanadi. “Soliq krediti” sifatida tanish bo`lgan bu usul soliq tizimida o`zini-o`zi tartibga solish imkonini beradi, bu esa soliqlar olish tartibini yaxshilaydi.

Qo`shilgan qiymat solig`ining asosiy afzalligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bosqichida to`langan soliq miqdorini hisoblash mumkin. Bu misol uchun, eksport uchun soliq chegirmalarini hisoblash va eksport subsidiyalari berilishida buzilishlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday ko`p bosqichli soliqlardan foydalanish yagona firma tuzilmasi yoki korxonalar uyushmasi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarishda soliq

summasini kamaytiradi va shu tariqa firmalarning vertikal integratsiyasiga turtki bo`ladi.

Qo`shilgan qiymat solig`ining mamlakatimizda rivojlanish tarixi qisqa davrni o`z ichiga olgani bilan ancha samarali faoliyat ko`ratib kelmoqda va budjet daromadlarini shakllantirishda mustahkam o`rin egallagan. Buning asosiy sabablaridan biri qo`shilgan qiymat solig`ining ilgari amalda bo`lgan soliqlardan bir necha afzalliklarga egaligidir. Endi bu afzalliklar haqida to`xtalsak.

Qo`shilgan qiymat solig`i umuman bilvosita soliqlarning kelib chiqish tarixi shuni ko`rsatadiki, ularga soliq yukini mahsulot ishlab chiqaruvchilardan iste`molchilarga o`tkazish vazifasi qo`yilgan. Mohiyati jihatidan qo`shilgan qiymat solig`i bilvosita soliq bo`lganligi uchun korxonaning moliyaviy yakuniga betaraf bo`ladi. Buni bevosita soliq misolida yaqqol ko`rish mumkin, masalan foyda solig`i yuki bevosita ishlab chiqaruvchining zimmasiga tushib, uning moliyaviy natijasiga ta`sir ko`rsatadi, qo`shilgan qiymat solig`ida esa soliq yuki (ayrim holatlardan tashqari) iste`molchiga o`tib ketadi. Qo`shilgan qiymat solig`ining, bizningcha eng muhim afzalliklaridan biri bu mahsulot sotuvchi korxona faoliyatiga nisbatan, ya`ni korxonaga nisbatan betarafligidir.

Qo`shilgan qiymat solig`ining bunchalik tez va keng tarqalishi zamonaviy texnika va yo`lga qo`yilgan hujjatlar aylanishida soliq operatsiyalarini tez va aniq amalga oshirish imkonini berishi muayyan tovarlar va xizmatlarga soliq solishning imtiyozli shartlari borasida chakana savdodagi sotuvlardan olinadigan soliqqa nisbatan samaraliroq ekanligi bilan izohlanadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste`molchiga sotishgacha bo`lgan jarayonda har bir sotish hujjatidan olinadigan bilvosita ko`p pog`onali soliq bo`lib, uning obyekti qo`shilgan qiymat, ya`ni tovarlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xomashyo, materiallar yoki tovarlar va mahsulotlar qiymatiga qo`shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq tovar narxining barcha unsurlarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi.

Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur`atlari haqida ma`lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini yengillashtiradi. Bundan tashqari, davlat aholiga soliqning mazkur turning yagona va oxirgi to`lovchisiga sotilishiga qadar daromadni bo`lib-bo`lib, lekin uzluksiz olish umkonini beradi.

Jahon amaliyoti qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblashning deyarli bir xil tizimini nazarda tutadi. To`lovchi xaridordan sotilgan tovarlar uchun qo`shilgan qiymat solig`i summasi va mol yetkazib beruvchi tomonidan moddiy resurslar, yoqilg`i, ishlar uchun to`langan qo`shilgan qiymat solig`i summasi orasidagi farqni to`laydi. To`lanishi kerak bo`lgan soliq manfiy bo`lib chiqsa, ya`ni bu soliq ko`payib ketsa, qoldiq bo`lajak to`lovlar hisobiga kiritiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda qabul qilinganidek, soliq to`lovchiga qaytariladi.

Shunday qilib, mamlakatimizda qo`shilgan qiymat solig`i joriy qilinishi paytida asosiy vazifa qilib qo`yilgan budget daromadlarini uzluksiz ta`minlash zarur darajada uddalangan, lekin shu bilan birga mamlakatimiz budget daromadlarini shakllantirilishi asosan bilvosita soliq bo`lgan qo`shilgan qiymat solig`ining ulushi hisobiga to`g`ri kelishini ijobiy holat deb bo`lmaydi, chunki xalqaro amaliyot tahlillari shuni ko`rsatmoqdaki, jami soliq tushumlarida bilvosita soliqlar salmog`ining oshib borishi, mamlakatda aholi jon boshiga to`g`ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori kamayishiga olib kelishi mumkin.

1.2. Qo`shilgan qiymat solig`ining O`zbekiston soliq tizimida tutgan o`rni.

Respublikamiz mustaqillikga erishgandan so`ng dastlabki yillik (1992 yil) Davlat budgetiga tashqaridan dotatsiya va subvensiya olmasdan tuzilishi bo`yicha talablar qo`yildi. Shundan kelib chiqib, boshlang`ich bosqichda soliq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy yo`nalishga ega bo`lgan budget daromad va xarajatlarining tengligini ta`minlash bilan bog`liq bo`lgan muammolarni xal

qilishga qaratilgan edi. Uni respublikada ishlab chiqarish hajmi tushib ketgan bir sharoitda, yuqori inflatsiya paytida va davlat moliya sohasidagi o'ta og'ir bir vaziyatda amalga oshirishga to'g'ri keldi.

Yuzaga kelgan vaziyat, bilvosita soliqlar (asosan QQS)ga asoslangan soliq tizimini fiskal vazifani bajarishi zarurligini taqozo qildi. Soliqlarni joriy etilishining bosh maqsadi bo'lib davlat taqdi etayotgan xizmatlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli bu davrda soliq isloxotida sezilarli muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi, bunda ayniqsa, aylanmaga soliq va sotishdan soliq o'rniga qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining asosiy sabablaridan bo'lib birinchi navbatda u yordamida davlat budjetiga daromadlar tushumining tengligini ta'minlash va bozor munosabatlarini shakllantirish vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan davlat budjetini tuzishning barqaror bazasini yaratish hisoblanadi. Olimlarnng fikricha qo'shilgan qiymat solig'i kabi nazariya sohasidan amaliyot sohasiga juda tez o'tgan va dunyoning bir necha mamlakatlari budjetining bilvosita soliqlari ichida yuqori mavqeni egallagan soliqni soliqlar rivojlanish tarixi bilmaydi.

Iqtisodiyotning har xil sohalaridagi tuzilishi, o'zgartir-masdan, soliq stavkalarini uncha kata bo'lmagan miqdorda oshirilishi, budjetga soliq tushumini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropadagi xorijiy davlatlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida sinab ko'rilgan, natijada u budjet daromadlarini shakllantirishning ishonchli manbai sifatida o'zining qulay va samarali vosita ekanligini isbotlagan .Lekin shunga qaramay mamlakatimizda QQSning dastlab joriy etilishidagi yuqori stavkani (30%) shu paytda faoliyat ko'rsatgan korxonalarning moliyaviy natijalariga egri soliq sifatida bo'lmagan bo'lsada , Tovar va xizmatlar bahosining oshishiga va buning natijasida inflatsiya darajasining yanada yuqori (646%⁶) bo'lishiga o'z «ulishini qo'shadi», desak mubolag'a bo'lmasa kerak (to'g'ri, bunda boshqa

⁶ Ачилов М., Тен В. Банковская система Республики Узбекистан. Журнал «Ринок, деньги и кредит», №9, 2001, С. 7

omillarning ham ta'siri katta bo'lgan). Shu tufayli keying yillarda QQS stavkalari tushirib borildi.

QQSning mamlakatimizda rivojlanish tarixi qisqa davrni o'z ichiga olgani bilan ancha samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda va budget daromadlarini shakllantirishda mustahkam o'rin egallagan. Buning asosiy sabablaridan biri QQSning ilgari amalda bo'lgan soliqlardan bir necha afzalliklarga egaligidir. Endi bu afzalliklar xaqida to'xtalsak.

QQS umuman bilvosita soliqlarning kelib chiqish tarixi shuni ko'rsatdiki, ularga soliq yukini mahsulot ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga o'tkazish vazifasi qo'yilgan. Mohiyati jihatidan QQS bilvosita soliq bo'lganligi uchun korxonaning moliyaviy yakuniga betaraf bo'ladi⁷. Buni bevosita soliq misolida yaqqol ko'rish mumkin, masalan foyda solig'i yuki bevosita ishlab chiqaruvchining zimmasiga tushib, QQSda esa soliq yuki (ayrim xolatlardan tashqari) istemolchiga o'tib ketadi. QQS solig'ining, bizningcha eng muhim afzalliklaridan biri bu mahsulot sotuvchi korxona faoliyatiga nisbatan, ya'ni korxonaga nisbatan betarafligidir.

Qo'shilgan qiymat solig'ining bunchalik tez va keng tarqalishi zamonaviy texnika va yo'lga qo'yilgan xujjatlar aylanishida soliq operatsiyalarini tez va aniq amalga oshirish imkonini berishi muayyan tovarlar va xizmatlarga soliq solishning imtiyozli shartlari borasida chakana savdodagi sotuvlardan olinadigan soliqqa nisbatan samaraliroq ekanligi bilan izohlanadi.

Demak, respublikamizda QQSning joriy etilishi bir tomondan soliq tizimida keng qo'llanib kelinayotgan dunyo andozalariga o'tish uchun bir qadam bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan davlat budjeti daromadlarini uzluksiz ta'minlash ko'zda tutilgan edi. Budget daromadlarini shakllantirishda QQS qanday mavqeini egallab kelmoqda va uning soliq tizimida tutgan o'rnini baholash uchun biz keyingi yillardagi soliq tushumlari tuzilishini keltirib o'tmoqchimiz (1-jadval).

⁷ Yahyoyev.Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: 2000. 59-b.

**2011-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti
daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari⁸**

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil (reja)	
	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da	mln.so'm	jami nis-n, %da
I. Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	16178563,5	100	20614100,0	100	25104900,0	100	30160800,0	100
1.To'g'ri soliqlar	4238732,8	26,2	5196400,0	25,2	6583100,0	26,2	7790400,0	25,8
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	825011,7	5,1	917200,0	4,4	1239000,0	5,0	1302300,0	4,3
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	527481,4	3,3	703500,0	3,4	817300,0	3,2	989800,0	3,3
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar	378360,0	2,3	538500,0	2,6	755100,0	3,0	911600,0	3,0
1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1789700,0	11,1	2372700,0	11,5	2769700,0	11,0	3313900,0	11,0
1.5. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	187547,1	1,1	218100,0	1,1	342100,0	1,3	50500,0	1,7
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	530632,6	3,3	446400,0	2,2	659900,0	2,6	767800,0	2,5
2. Egri soliqlar	8656853,1	53,5	11187800,0	54,3	13039400,0	51,9	15618200,0	51,8
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	5228773,9	32,3	6784500,0	33,0	7737800,0	30,8	9123100,0	30,2
2.2. Aktsiz solig'i	2481794,0	15,3	3115500,0	15,1	3726500,0	14,8	450600,0	15,0
2.3. Bojxona boji	515980,5	3,2	732400,0	3,5	992600,0	4,0	1142000,0	3,8
2.4. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	430304,7	2,6	555400,0	2,7	582500,0	2,3	847100,0	2,8
3. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	2308908,7	14,3	2746400,0	13,3	3755500,0	15,0	4521400,0	15,0
3.1. Mol-mulk solig'i	490536,2	3,0	642000,0	3,1	831400,0	3,3	1135000,0	3,8
3.2. Yer solig'i	346862,9	2,1	446000,0	2,2	646300,0	2,6	665200,0	2,2
3.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1409715,0	8,7	1585300,0	7,7	2180100,0	8,7	2595800,0	8,6
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	61794,6	0,4	73100,0	0,3	97700,0	0,4	125400,0	0,4
4. Ustama foyda solig'i	142314,4	0,8	250000,0	1,2	294500,0	1,2	388400,0	1,3
5. Boshqa daromadlar	831754,5	5,1	1233500,0	6,0	1432400,0	5,7	1842400,0	6,1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki davlat budjeti daromadlari yillar davomida o'sib borganloigini ko'rishimiz mumkin.

2011-yilda Davlat budjeti maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz jami 16178563,5 mln.so'mni tashkil qilagan bo'lsa, 2012-yilda 20614100,0 mln.so'mni tashkil etgan. 2014-yilda bu ko'rsatgich 30160800,0 mln.so'mni

⁸ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar

tashkil qilishi rejalashtirilgan. Davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar ulushi jami daromadga nisbatan 25,0 va 26,0 foiz atrofida tebranganligini ko'rishimiz mumkin. To'g'ri soliqlar 2011-yilda jami budjet daromadlarining 26,2 foizini tashkil etgan, 2012-yilda 25,2 foizni va 2013-yilda 26,2 foizni tashkil etgan bo'lsa 2014-yilda 25,8 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. Davlat budjeti daromadlarida yuqori salmoqqa ega soliqlardan bu egri soliqlar hisoblanadi. Egri soliqlar 2011-yilda jami budjet daromadlariga nisbatan salmog'i 53,5 foizni tashkil etgan, 2012-yilda 54,3 foizni va 2013-yilda 51,9 foizni qilgan, va 2014-yilda ushbu ko'rsatgich 51,8 foiz bo'lishi rejalashtirilgan.

Budjet daromadlarida mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari ham bo'lib. 2011-yilda bu soliqlar bo'yicha tushumlar jami daromadga nisbatan 14,3 foizni tashkil etgan, 2012-yilda esa 13,3 foizni, 2013-yilda esa 15 foizni tashkil etgan bo'lsa 2014-yilda bu ko'rsatgich 15 foiz bo'lishi kutilmoqda. Ustama foyda solig'i 2011-yilda jami daromadga nisbatan 0,8 foizni, 2012-yilda 1,2 foizni va 2013-yilda foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. 2014-yilda bu ko'rsatgich 1,3 foiz bo'lishi kutilmoqda. Budjet daromadlarining boshqa daromadlari ham ahamiyatga molik bo'lib, jami daromadga nisbatan 5 va 6 foiz atrofida tebranishini ko'rishimiz mumkin. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida kelib chiqib egri soliqlar tarkibida bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'iga alohida taxlil yuritsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i jami budjet daromadlariga nisbatan 32,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012-yilda 33 foizni va 2013-yilda 30,8 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. 2014-yilda bu ko'rsatgich 30,2 foiz bo'lishi rejalashtirilmoqda.

Endi esa 2011-2013-yillarda Davlat budjeti daromadlarida egri soliqlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasini tahlil qilsak:

Davlat budjeti daromadlarida egri soliqlar bo'yicha tushum dinamikasi⁹

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln.so'm	jami nis-n % da	mln.so'm	jami nis-n % da	mln.so'm	jami nis-n % da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz jami	16178563,5	100	20614100,0	100	25104900,0	100
Egri soliqlar	8656853,1	53,4	11187800,0	54,3	13039400,0	51,9
Qo'shilgan qiymat solig'i	5228773,9	32,3	6784500,0	33,0	7737800,0	30,8
Aksiz solig'i	2481794,0	15,3	3115500,0	15,1	3726500,0	14,8
Bojxona boji	515980,5	3,2	732400,0	3,5	992600,0	4,0
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	430304,7	2,6	555400,0	2,7	582500,0	2,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga kelib tushayotgan egri soliqlar tarkibida aksiz solig'idan tushumlarning 2011-yildan boshlab kamayib borganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, davlat budjeti daromadlari tarkibida aksiz solig'idan tushumlar 2011-yilda 15,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Biroq, 2012-yilda 15,1 foizni, 2013-yil ko'rsatkichlarida esa 14,8 foizni tashkil etgani holda kamayish an'anasiga ega. Egri soliqlar tarkibida transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning ulushi keyingi yillar mobaynida o'sish an'anasiga ega bo'lgan, ya'ni 2011-yilda ushbu soliqning jami daromadlardagi ulushi 2,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda 2,7 foizni, oxirgi yilda bu soliqning jami daromadlardagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lib 2,3 foizni tashkil etishi kuzatilgan. Egri soliqlar tarkibida muhim ahamiyatga ega soliqlardan biri qo'shilgan qiymat solig'i bo'lib ikki yilda ya'ni 2011-2012 yillarda o'sish an'anasiga ega bo'lib

⁹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar

budjet daromadlaridagi ulushi 32,3 va 33,0 foizni tashkil qilgan, Biroq 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 30,8 foizni tashkil qilib kamayish an'anasiga ega bo'lgan.

3-jadval

Angor tumani budjetida solikli daromadlarning tarkibi¹⁰

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln so'm	jami nis- n,%da	mln so'm	jami nis- n,%da	mln so'm	jami nis- n,%da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz jami	11997465,4	100	13607959,5	100	16435010,1	100
Tog'ri soliqlar	7094991,3	59,2	7954628,2	58,4	8138283,3	49,5
1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	412567,20	3,4	513947,3	3,7	135198,2	0,8
2.Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	3257575,60	27	3567484,7	26,2	3583063,9	22,0
3.Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solg'i	1002000,40	8,2	1169908,7	8,6	1286527,6	7,8
4.Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	955789,2	7,9	1004983,4	7,4	1050700,2	6,4
5.Yagona yer soligi	516898,4	4,3	600020,3	4,4	472032,9	2,8
6.Yagona soliq to'lovi	819602,6	6,7	928501,9	6,8	1574607,1	9,5
7.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10052,0	0,7	11076,0	0,08	19121,0	0,14
8.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq	120505,9	1,0	158705,9	1,22	17032,4	0,10
Egri soliqlar	2303822,5	19,2	2659369,8	19,5	4023396,0	24,5
1.Qo'shlgan qiymat solig'i	1298822,3	10,8	1522944,4	11,2	1390270,3	8,5
2. Transport vositalarga benzin ,dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1005000,2	8,4	1136425,4	8,3	2633125,7	16,0
Boshqa daromadlar	2598651,6	21,6	2993961,5	22,1	4273330,8	26,0

¹⁰ Angor tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayorlandi.

Yuqoridagi jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki, Angor tumani budjet daromadlari yillar davomida o'sib borganligiga amin bo'lamiz. 2011 yilda tuman budjet daromadlari 11997465,4 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2012 yilda 13607959,5 mln.so'mni, 2013 yilda 16435010,1 mln.so'mni tashkil etdi. To'ri soliqlar bo'yicha tushumlar esa 2011 yilda 7094991,3 mln.so'mni, 2012 yilda 7954628,2 mln.so'mni 2013 yilda esa 8138283,3 mln.so'mni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinadiki, to'ri soliqlardan tushgan tushum o'sish an'anasiga ega. To'ri soliqlar tarkibida muhim ahamiyatga ega bo'lgan soliqlardan biri yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, 2011 yilda 412567,2 mln.so'mni 2012 yilda 513947,3 mln.so'mni, 2013 yilda esa 135198,2 mln.so'mni tashkil etgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2011 yilda 3257575,6 mln.so'mni, 2012 yilda 3567484,7 mln.so'm va 2013 yilda 3583063,9 mln.so'mni tashkil etgan. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, 2011 yilda 1002000,4 mln.so'mni, 2012 yilda esa 1169908,7 mln.so'mni 2013 yilda bu ko'rsatkich 1286527,6 mln.so'mni tashkil etmoqda. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i 2011 yilda 955789,2 mln.so'mni, 2012 yilda 1004983,4 mln.so'mni 2013 yilda esa 1050700,2 mln.so'mni tashkil etdi.

Yagona yer solig'i bo'yicha tushumlar 2011 yilda 516898,4 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa 2012 yilda 600020,3 mln.so'mni 2013 yilda esa 472032,9 mln.so'mni tashkil etgan. Yagona soliq to'lovi 2011 yilda 819602,6 mln.so'mni, 2012 yilda 928501,9 mln.so'mni, 2013 yilda esa 1574607,1 mln.so'mni tashkil qilgan. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq 2011 yilda 10052,0 mln.so'mni, 2012 yilda 11076,0 mln.so'm 2013 yilda esa 19121,0 mln.so'mni tashkil etgan. To'g'ri soliqlar tarkibida yana bir yuridik shaxslar to'laydigan soliq bu obodonlashtirish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig'i bo'lib 2011 yilda 120505,9 mln.so'mni, 2012 yilda 158705,9 mln.so'mni 2013 yilda esa bu ko'rsatkich 17032,4 mln.so'mni tashkil qilib tushish an'anasiga ega bo'lgan. Budjet daromadlarini ob-havosini ta'minlovchi egri soliqlarni o'rni beqiyosdir. Egri soliqlar tarkibida muhim ahamiyatga ega

bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i 2011 yilda 1298822,3 mln.so'mni, 2012 yilda 1522944,4 mln.so'mni va 2013 yilda bu ko'rsatgich 1390270,3 mln.so'mni tashkil etgan.Yuqorida ko'rinadiki 2012 yilda 2011 yilga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'idan budjetga tushumlar o'sish an'anasiga ega bo'lgan. Biroq 2013 yilda 2012 yilga nisbatan kamayish an'anasi kuzatilgan.Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq, 2011 yilda 1005000,2 mln.so'mni, 2012 yilda 1136425,4 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa 2013 yilga kelib bu ko'rsatgich 2633125,7 mln.so'mni tashkil etgan.Tuman budjetining boshqa daromadlari ham yil sayin o'sib borgan va 2011 yilda 2598651,6 mln.so'mni, 2012 yilda 2993961,5 mln.so'mni va 2013 yilda esa 4273330,8 mln.so'mni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.Yuqorida biz Angor tumani mahalliy budjet daromadlarini keltirilgan jadval asosida taxlil qildik.Bundan ko'rinadiki qo'shilgan qiymat solig'i mamalakatimiz budjetida yuqori salmoqqa ega bo'lgani kabi tuman budjetida ham o'z o'rniga egadir.

Endi esa 2011-2013 yillarda Angor tuman mahalliy budjeti daromadlarida egri soliqlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasini tahlil qilsak (4-jadval).

Quyidagi 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Tuman budjet daromadlarida egri soliqlardan tushumlarning yillar mobaynida o'sib borganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Egri soliqlar tuman budjet daromadlarining jamiga nisbatan 2011-yilda 19,2 foizni tashkil qilgan, 2012-yilda 19,5 foizni, va 2013-yilda 24,5 foizni tashkil qilmoqda. Egri soliqlar tarkibida muhim ahamiyatga molik soliqlardan biri bu qo'shilgan qiymat solig'i bo'lib 2011-yilda tuman budjetining jami daromadlariga nisbatan 10,8 foizni tashkil etgan, 2012-yilda ushbu ko'rsatgich 11,2 foizni tashkil qilib o'sish a'nanasiga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin , ammo bu ko'rsatkich 2013-yilda 8,5 foizni tashkil qilgan.

Egri soliqlar tarkibidagi yana bir soliq turidan biri transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq. Ushbu soliq 2011-yilda tuman jami budjet daromadlarining 8,4 foizini tashkil qilib, 2012-yilda esa bu

ko'rsatkich 8,3 foizni tashkil qilgan va pasayish an'anasiga ega bo'lgan, lekin bu ko'rsatkich 2013-yilga kelib 16 foizni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

4-jadval

**Angor tuman budjeti daromadlarida egri soliqlar bo'yicha
tushumlar dinamikasi¹¹**

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln, so'm	jami nis-n % da	mln, so'm	jami nis-n % da	mln, so'm	jami nis-n % da
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz- jami	1199765,4	100	13607959,5	100	16435010,1	100
Egri soliqlar	2302822,5	19,2	2659369,8	19,5	4023396	24,5
Qo'shilgan qiymat solig'i	1298822,3	10,8	1522944,4	11,2	1390270,3	8,5
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1005000,2	8,4	1136425,4	8,3	2633125,7	16

Respublika soliq tizimi, jumladan, soliq turlari, ularni hisoblash va undirish mexanizmi ham takomillashib, dunyo standartlariga tobora yaqinlashtirilmoqda. Soliqlarning, ayniqsa iste'molga solinadigan egri soliqlarning iqtisodiyotda tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 1992 yilda amalda bo'lgan 30 foizdan hozirgi davrga kelib 20 foizga qadar pasaytirilganligi va mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida chetdan import qilinadigan ayrim tovarlarga nisbatan aktsiz va qo'shilgan qiymat soliqlarining joriy qilinishi respublikani soliq tizimida egri soliqlarning muhim o'rin egallashidan dalolat beradi.

¹¹Angor tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayorlandi.

1.3. Qo`shilgan qiymat solig`ini undirishda xorijiy davlatlar tajribasi.

O`zbekiston Respublikasida amalda bo`lgan soliq tizimining samaradorligini oshirishga ko`maklashuvchi muhim va zarur shartlardan biri uzoq vaqtlardan buyon soliqdan iqtisodiyotni boshqarishning eng ta`sirchan vositalaridan biri sifatida samarali foydalanib kelayotgan rivojlangan mamlakatlarning tajribasini puxta o`rganishdir. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimi ushbu mamlakatlarda hukm surib turgan har xil iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlarga bog`liq ravishda rivoj topishi turgan gap. Soliqlarning undirilishi, tarkibi, hisoblanish usuli, stavkasi, belgilangan imtiyozlar va qolaversa soliq yig`uvchilarga berilgan huquqlar bilan ham bir-biridan farq qiladi. Lekin bu jarayonlar chuqur tahlil qilinishi natijasida umumiy tomonlarini topish, shu bilan birga uning ustuvor taraflarini iqtisodiyotga moslashtirgan holda qo`llash imkoniyatlarini ochish mumkin bo`ladi. Shunday ekan jahonning bir necha mamlakatlarida qo`shilgan qiymat solig`i undirilish mexanizmi turlichaligi va o`xshashligi bo`yicha fikrlarimizni bayon etsak. Qo`shilgan qiymat solig`i undirilish mexanizmida uning stavkalari turlichaligi katta ahamiyat kasb etadi. Qo`shilgan qiymat solig`ining bir necha stavkasi mavjud bo`lsa, ma`muriy xarajatlar, shuningdek, me`yorga rioya etishni ta`minlash xarajatlari ham ancha ko`payadi, bir xil tovarlarga turli stavkalar bilan soliq solinadigan vaziyat vujudga keladi. Shu sababli Qo`shilgan qiymat solig`i mavjud bo`lgan mamlakatlarning ko`pchiligi soliq stavkalari soni iloji boricha kam bo`lishini afzal ko`radi. Qo`shilgan qiymat solig`i yaqindagina joriy etilgan mamlakatlar Kanada, Islandiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya va Shvetsariyada qo`shilgan qiymat solig`ining bitta yoki ko`pi bilan ikkita stavkasi tasdiqlangan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlarida ham qo`shilgan qiymat solig`i standart stavkasidan ko`p marotaba oshirilgan stavkalardan foydalanish ancha kamaydi. Yagona Yevropa bozori doirasida qo`shilgan qiymat solig`ini boshqarishni osonlashtirish maqsadida odatda

hashamat buyumlariga nisbatan qo'llaniladigan eng yuqori stavkalarni bosqichma-bosqich bekor qilishni ko'zda tutuvchi maxsus bitim tuzilgani tufayli shunga erishildi.

5-jadval

**Yevropa mamlakatlarida belgilangan qo'shilgan qiymat solig'i
stavkalari¹²**

Mamlakat nomi	Havo yo'llari	Avtomobillar	Avtomobillar ijarasi	Oziq ovqat	Ilmiy tadqiqotlar	Yuk tashish	Telekommunikatsiya	Savdo ko'rgazmalari	O'quv mashg'ulotlar	Sayohat xizmatlari	Uy-joy xizmatlari
Avstriya	20	0	0	10	20	10	20	20	20	10	10
Finlandiya	22	22	22	0	22	8	22	22	22	8	8
Germaniya	16	16	16	16	16	16	16	16	16	16	16
Italiya	20	0	0	0	20	20	20	20	20	0	0
Niderlandiya	17,5	17,5	17,5	0	17,5	6	17,5	17,5	17,5	6	6
Portugaliya	17	5	0	0	17	0	17	17	17	0	0
Shvetsiya	25	25	25	25	25	12	25	25	25	12	12
Buyuk Britaniya	17,5	17,5	17,5	17,5	17,5	17,5	17,5	17,5	17,5	0	17,5
Belgiya	21	21	21	0	21	6	21	6	21	6	0
Daniya	25	25	0	25	25	0	25	25	25	0	25
Fransiya	0	0	0	0	19,6	19,6	19,6	19,6	19,6	0	0
Irlandiya	21	21	0	0	21	21	21	21	21	0	0
Lyuksemburg	15	15	15	3	15	3	15	15	15	3	3
Norvegiya	23	23	0	0	23	23	23	23	23	0	0
Ispaniya	16	16	16	7	16	7	16	7	16	7	7
Shvetsariya	0	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	0	3,5

Ayrim xizmat turlariga, ayniqsa yo'lovchilarni tashish, tomoshagoh, mehmonlar va restoranlar faoliyatidan qo'shilgan qiymat solig'i olishda xilma-xillik juda ko'p. Reklama, telefon, erkin kasb egalari daromadidan odatda standart stavka bo'yicha soliq olinadi, lekin ular Finlandiya va Norvegiyada soliqdan butunlay ozod qilingan. Shvetsiyada madaniyat va ta'lim sohasidagi xizmatlardan, shuningdek shifokorlar va tish doktorlari xizmatidan soliq

¹²Toshmatov Sh., Komilov M. Qo'shilgan qiymat solig'i. –T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2004. 28-b.

olinmaydi. Belgiyada vrachlar, yuristlar va sud vakillari soliq to'lamaydi. Niderlandiyada va Germaniyada vrachlar, tish doktorlari va ayrim tibbiy kasb vakillari soliq to'lashmaydi. Ko'p mamlakatlarda sug'urta mukofotlari, shuningdek qimor o'yinlaridan tushgan daromadlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, lekin ularda alohida soliq olinadi. Bank va moliya xizmati, maorif, madaniy, tibbiy xizmat ko'rsatish, ijara haqi va pochta xizmati qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi. Uy-joy (va u bilan bog'liq xizmatlar)dan qo'shilgan qiymat solig'i undirishda ham tafovut anchagina.

Bir xil qo'shilgan qiymat solig'i solish xususida kelishuv deyarli yo'q soha yer va qurilish bilan bog'liq xizmatlarga soliq solishdir. Uy-joy egalari foydalanadigan obodonchilik ishlari qiymatiga soliq solinmaydi. Uy-joy qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilgan taqdirda unda yashovchilar uchun afzallik ijaraga olingan uylarda yashovchilarga nisbatan juda katta bo'ladi. Shu bois doimiy istiqomat joyi qo'shilgan qiymat solig'i olishdan ozod qilinadi.

Ko'p mamlakatlarda yangi binoni sotishdan qo'shilgan qiymat solig'i olinadi (bu QQS solig'i to'langandan so'ng uy-joy egalari bino qiymatining har gal ortishidan foyda ko'rishini bildirsa ham). Yangi binolarni sotishni qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qiladigan bir qancha mamlakatlar (masalan, Germaniya, Lyuksemburg, Portugaliya) uy-joy sotilishiga soliq solishga yo'l qo'yib, shu tariqa sotib oluvchi to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini chegirib tashlashni talab qilishiga imkon beradi. Mamlakatlarning ko'pchiligida binolarni qayta sotish soliقدan ozod qilingan, Yaponiya, Ispaniya, Yangi Zelandiya va Kanada bundan mustasno bo'lib, bu mamlakatlarda tijorat binolarini sotishdan qo'shilgan qiymat solig'i undiriladi.

Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda Qo'shilgan qiymat solig'iga o'tilishi uy-joy narxlarining katta miqdorda oshirib yubormasligini ta'minlash uchun barcha chora tadbirlar ko'riladi, bu ayniqsa kam daromadli kishilarni uy qurilishi loyihalariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uy xo'jaligi iste'mol tizimida uy-joy eng salmoqli o'rinni egallashi shubhasizdir. Shu sababdan ham

uy-joy bilan aloqador ish, xizmatlarni soliqqa tortish masalasiga ehtiyotlik bilan yondashuv zarurligini siyosiy tomondan baholash mumkin. Bu o`rinda muammo ikki holatda, birinchisi, uy-joy qurilishini, ikkinchisi, foydalanilgan uy-joylarni sotilishini soliqqa tortishda yuzaga kelishi mumkin.

Ilgari foydalanilgan tovarlar deganda ko`pchilik asosan ishlatilgan avtomobillarni, jihozlarni, kiyim-kechak va boshqalarni tushunishadi, lekin ilgari foydalangan tovarlardan biri bo`lib yer va bino inshootlar hisoblanadi. Agar yangi uy-joylardan qo`shilgan qiymat solig`i undirilsa, kishilarni omadi chopgan bo`lar edi. Shuning uchun yuzaga keladigan bu qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun barcha uy-joylarni birinchi sotilish paytida soliqqa tortish mumkin bo`ladi. Buning ma`nosi shuki kishi o`zining QQS joriy qilinishdan ilgari sotib olgan uyini sotmoqchi bo`lsa ham bari bir qo`shilgan qiymat solig`i to`lashi zarur bo`ladi, lekin faqat bir marta ushbu soliq undiriladi.

Agar qo`shilgan qiymat solig`i to`langanligi to`g`risidagi hisob-kitob faktura ko`rsatilsa undan boshqa yana QQS undirilmaydi. Uy-joy fondiga biron-bir o`zgarish kiritish, qo`shimcha qurilish qilish, bu ishlar amalga oshirilgan paytda, albatta, qo`shilgan narxdan qo`shilgan qiymat solig`i undiriladi.

Amaliyotda uy-joylar, yoki boshqacha qilib aytganda, ko`chmas mulk qo`shilgan qiymat solig`i hisoblanish jarayonida 2 xil qaraladi:

- 1) iste`molchiga topshiriladigan tovar sifatida;
- 2) tovar, ish yoki xizmatlar narxiga amortizatsiya ajratmasi bo`yicha qo`shiladigan ishlab chiqarish omili sifatida.

Ma`lumki, ko`pgina mamlakatlarda xalqaro yo`lovchilar tashish qo`shilgan qiymat solig`idan ozod etilgan, lekin ayrim mamlakatlarda bu masala o`zaro kelishuv asosida hal qilinadi.

Dunyoning boshqa mamlakatlarida yo`lovchilar tashish transportlarini qo`shilgan qiymat solig`iga tortishda har xil yondashuvni kuzatish mumkin. Masalan, Chilida u soliqqa tortiladi, Urugvayda ozod qilingan. Koreyada esa havo transporti, tez yurar avtobuslar, taksi hamda maxsus avtomobil va kemalardan tashqari yo`lovchi transportlari soliqqa tortilmaydi. Xalqaro

yo'lovchi tashish esa o'zaro kelishuv asosida nol foizli stavkada soliqqa tortiladi.

Umumiy qilib jamoat yo'lovchi transportlarini soliqqa tortilishini asoslash birmuncha qiyinroq. Chunki jamoat yo'lovchi transportlaridan ko'p hollarda kam daromadga ega odamlar foydalanadi, ijtimoiy himoyalash jihatidagi ushbu xizmat turning qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi maqsadga muvofiq degan fikrlar talaygina. Lekin, bir necha sanoati rivojlangan shaharlarda (Masalan, Tokio, Nyu-York) yengil mashinalarning ko'pligi, yo'lning tig'izligi hisobga olinsa, yetarli darajada yuqori daromadga ega bo'lganlar ham jamoat yo'lovchi transportlaridan keng foydalanishini unutmaslik kerak. Endi rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda jamoat yo'lovchi transportlarini davlat subsidiya berish orqali saqlab turish hollarini oldini olish uchun bu xizmat turini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish yoki uni pasaytirilgan stavkalarda soliqqa tortish mumkin, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'iga umumiy miqdorda tortilish maqsadga muvofiqdir.

Hukumat tomonidan, ko'pincha aholini ijtimoiy himoyalash nuqtai nazaridan oziq-ovqat tovarlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish yoki uni pasaytirilgan stavkalarda soliqqa tortishga harakat qilinadi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda QQS undirish jarayonida oziq-ovqat tovarlari alohida toifaga kiritiladi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan Finlandiya, Belgiya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Portugaliya, Irlandiya va Buyuk Britaniyadau nolli stavkada soliqqa tortiladi. Agar fermerlar oziq-ovqat tovarlarini yetishtirishda foydalanilayotgan resurslar QQS dan ozod etilgan yoki nol stavkada soliqqa tortilmas ekan, ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlar narxida QQS elementlari mavjud bo'ladi, u o'z navbatida ishlab chiqarish resurslari tarkibiga, fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish unumdorligiga ta'sir etishi tabiiydir. Bari bir oziq-ovqat tovarlarining pastroq stavkalarda soliqqa tortilishi zarurligini hisobga olib, u jahon tajribasida 3 ta shartli toifaga bo'linadi:

- 1) “birinchi zarur oziq-ovqat tovarlari”;
- 2) “zarur oziq-ovqat tovarlari”;
- 3) “qimmat oziq-ovqat tovarlari”.

Oziq-ovqat tovarlarining bunday guruhlarga ajratilishi, tabiiy ravishda uy xo`jalik daromadini ham izohlab beradi. Masalan, kam daromadli oila qimmat oziq-ovqat tovarlarini har doim ham sotib olish imkoniyatiga ega bo`lmaydi. Lekin shu bilan birga bu fikrni mutlaq to`g`ri deb ham bo`lmaydi, chunki ko`p daromadga ega oilalar ham birinchi zarur oziq-ovqat mahsulotlarini iste`mol qilishi aniq.

Shuni ham ta`kidlash zarurki, oziq-ovqat tovarlarini, keyin ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan resurslar, elektrquvvatni QQS dan ozod etish ma`lum ko`ngilsizliklarga olib kelishi mumkin. Kosta-Rikada muzqaymoqni QQS dan ozod qilish maqsadida avval uni ishlab chiqaruvchilar ozod etilgan, keyin muzqaymoq tayyorlash uchun uskuna ishlab chiqaruvchilar soliqdan ozod etilishi talab qilindi, uni ishlab chiqarish uchun uskunalarga zarur bo`lgan ehtiyot qismlari o`z navbatida ozod etish talab qilindi. Xullas, agar butun iqtisodiyot QQS dan ozod qilinmas ekan, bu zanjirning cheki bo`lmaydi.

Elektrquvvati, gaz va aloqa xizmatlari, oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy va jamoat transportlarini QQS dan ozod qilish yoki nolli stavkani qo`llashni tavsiya qilish uchun asos bo`lib kam ta`minlangan oilalar daromadiga salbiy ta`sirning oldini olish hisoblanadi. Shu bilan birga, elektrquvvati va aloqa xizmatlarining QQS dan ozod etilishiga qarshilik qiluvchilar ko`plab uchraydi. Bu shu bilan izohlanadiki, oilalarning daromadi ko`payishi bilan bu xizmatlarni ko`proq iste`mol qilinishiga olib keladi, ya`ni olinaning daromadi qancha ko`paysa, televizor, muzlatgich, uyali telefon va boshqalarni ko`proq xarid qiladi, bu jihozlar sonining ortishi o`z-o`zidan ma`lumki, elektrquvvati va aloqa xizmatidan yanada ko`proq foydalanilishiga olib keladi. Lekin masalaning boshqa tomoni ham bor, elektrquvvati va aloqa xizmatlari odatda, davlat xizmati muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun ham bu xizmatlarni

QQS ga tortish davlatning bir cho`ntagidan olib, ikkinchi cho`ntagiga solish bilan barobar.

Bu xizmatlar QQS dan ozod etilishining yana bir salbiy tarafi shuki, iste`molchilar undan yanada ko`proq foydalanaveradi, bu esa qolaversa, sarmoyalarning samarasiz joylashtirilishiga va boshqa ishlab chiqarishlarga ancha zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

QQS undirish mexanizmini ishlab chiqarishda murakkab muammolardan biri bo`lib, moliyaviy xizmatlarga soliq rejimini o`rnatish hisoblanadi.

QQS joriy etilgan ko`pgina davlatlarda moliyaviy xizmatlar va sug`urta operatsiyalari odatda soliqqa tortilmaydi, bu xizmatlarning eksport qilinishi nolli stavkada soliq hisoblanadi. Yevropa Ittifoqiga a`zo mamlakatlarning moliyaviy xizmat ko`rsatuvchi bir qator banklari bu xizmatlarni QQS dan ozod etilishini tanqid qilib chiqdilar. Buning boisi shundaki, banklarda moliyaviy xizmatlarning QQS dan ozod etilishi, bir tomondan, banklar sotib oladigan resurslar uchun to`lagan QQS ni qaytarib ololmaydi, ikkinchi tomondan, firmalar bankdan kredit olganlarida yoki depozitga pul qo`yganlarida, ular bo`yicha oladigan yoxud beradigan foizlari uchun QQS dan hisobga o`tkazish imkoniyatlariga ega bo`lmaydilar.

QQS joriy etilgan bir necha mamlakatlarda mayday va chakana savdo bilan shug`ullanuvchilar uchun QQS tizimi doirasida yon berish ko`zda tutilgan. Bu yon berish asosan ro`yxatdan o`tishdan ozod qilish, ma`muriy talablarni o`zgartirish hamda sof soliq majburiyatini hisoblash uchun standart formuladan foydalanish imkoniyatini berishdan iborat.

Bu yon bosishlarning sababi shundaki, mayday savdogarlar me`yorga rioya qilganda boshqa savdogarlarga qaraganda xarajatga ko`proq duch keladi. Mayda savdogarlarning ro`yxatdan o`tishdan ozod qilinishi soliq idoralari ma`muriy xarajatlar kamayishiga olib kelishi mumkin va bu ahamiyatga molik.

Ro`yxatdan o`tishning majburiymasligi sotuvchilarni sotish va sotib olishga soliq hisob-kitobi bilan deklaratsiya taqdim etishdan va hisob yuritishdan ozod qiladi. Bunday yon berish odatda yillik aylanmaning eng ko`p miqdori shaklini

oladi, bunday holatda xarid xarajatlarining ko`payishi va sotish uchun soliqni hisoblash mumkin emasligi nazarda tutiladi. U yana tenglashtiruvchi chizma shaklini olishi mumkin, bunda savdogarlardan ular xarid qilgan tovarlar uchun yuqoriroq stavka bilan soliq olinadi.

Endi Hamdo`stlik mamlakatlarining qo`shilgan qiymat solig`i tizimiga nazar solsak. 1992-yilga qadar sobiq ittifoqdagi davlatlar ichki tovar va xizmatlar aylanma solig`i va sotishga hisoblanadigan soliqqa tortilar edi. Aylanma solig`i turli stavkalarda olinar, ko`p hollarda ulgurji narx va qat`iy belgilangan chakana narxlar o`rtasidagi farq soliqqa tortilardi. Aylanma soliqni undirish bazasi o`zining to`liqmasligi bilan juda sezilib turardi va bu soliqni to`lashdan ozod qilishlar faqat ayrim turdagi mahsulotlarga emas balki ayrim korxonalarga ham qo`llanar edi.

1991-yildan boshlab ko`plab turdagi tovar va xizmatlar 5 % li stavkada sotuvga hisoblanadigan soliqqa tortish joriy etildi. Bu soliq QQS ning ayrim yo`nalishlarini o`zida mujassam etar edi. Maslalan, bu soliq ko`p bosqichli bo`lib, u ishlab chiqaruvchidan ulgurji korxona va chakana savdo korxonalaridan undirilardi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar bu soliqni mahsulotni sotish narxidan hisoblaganda, ulgurji korxona va chakana savdo korxonalari soliqqa tortish bazasi yalpi daromadi hisoblanardi. Sotishga hisoblanadigan soliq mahsulotlar eksporti va importiga qo`llanilmas edi. Bundan tashqari, bu soliqni to`lashdan oziq-ovqat tovarlarini ichki sotish, dori-darmon mahsulotlari, yo`lovchi tashish transporti xizmatlari, teatr chiptalari va boshqa operatsiyalar ozod etilgandi.

1992-yil 1-yanvardan boshlab Rossiya Federatsiyasida aylanma solig`i va sotishga hisoblanadigan soliq o`rniga qo`shilgan qiymat solig`i kiritildi. Rossiyaga o`xshab, sobiq ittifoq davlatlarining barchasida ham qo`shilgan qiymat solig`i kiritildi.

Sobiq ittifoq davlatlarida kiritilgan qo`shilgan qiymat solig`i quyidagi xususiyatlarga ega edi:

- QQS stavkasi 25 dan 30 % ga qadar belgilangandi;

- bu soliqqa ko`plab ichki bozorda sotiladigan tovar va xizmatlar tortiladi;
- bu soliq kassa usulida hisoblanadi;
- ishlab chiqarish korxonalari QQS ni to`liq sotish hajmidan, savdo korxonalari esa o`zining yalpi daromadidan hisoblardi;
- korxonalarga o`zlari sotib olgan asosiy vositalar uchun to`lagan QQS summasini chegirib tashlashga ruxsat berilmas edi;
- bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan davlatlar qatoriga kirmagan mamlakatlarga eksport qilinayotgan mahsulotlar QQS dan ozod qilingandi, ammo bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan davlatlarda eksport ichki tovar va xizmatlar qatorida barobar umumiy soliq stavkasida soliqqa tortilardi;
- respublika hududiga olib kirilayotgan tovar (ish, xizmatlar) umuman qo`shilgan qiymat solig`iga tortilmas edi.

Buning natijasida bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan davlatlarda hisoblanadigan QQS o`rtasida farqlar vujudga keldi, ammo shu bilan birga ular ko`p munosabatlarda bir-biriga o`xshashdir.

Bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan 12 ta davlatda, avvalo QQS ning yagona stavkasi o`rnatilgan bo`lib, keyinchalik soliq stavkasining hajmi o`zgarib bordi. Rossiya Federatsiyasi va Qozog`iston ancha past soliq stavkalarini kiritdi, ammo boshqa davlatlarda bunday bo`lmadi. 2 ta davlat (Turkmaniston va Ukraina) birinchi bor stavkalarni saqlab qoldi. Belarus va Gruziya soliq stavkasini kamaytirib 20 % gacha qoldirdi.

Lekin, QQS ning ma`lum barqarorligi va stavka tizimining soddaligi ham soliqqa tortish bazasini keng miqyosda ta`minlay olmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan davlatlarda QQS ni avval qo`llagan davrdan boshlab soliqdan ozod qilishlar, imtiyozlar va alohida sharoitlar ko`zda tutilgan bo`lib, ular soni yildan yilga ko`payib bordi.

Shu bilan bir qatorda, bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan davlatlarda soliq imtiyozlari ortishi ma`lum bezovtalikka olib keldi. Birinchidan, soliqdan ozod qilishlarning sonini ko`paytirish ushbu soliqqa tortish bazasini

kengaytirishga yo`l qo`ymaydi. Ikkinchidan, aniq va to`liq asoaslanmagan holda soliqdan ozod qilishlar ularni ko`rib chiqishda ma`lum qiyinchiliklarga sabab bo`ldi. Uchinchidan, suiste`molga zamin yaratilishi va soliq to`lashdan qochish ehtimolini kuchaytirdi. QQS bo`yicha qancha soliq imtiyozlari ko`paysa, yuqorida zikr etilganlarga shuncha shart-sharoitlar yaratilishi tabiiy holdir.

QQSni qo`llash usuli. QQS ni kiritgan bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan barcha davlatlarda soliq to`lash majburiyatlarining hisobi realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlarning kassa usuli asosida amalga oshirilgan. Ayni paytda dunyoning boshqa davlatlarida QQS ni odatda hisoblanish tamoyilida soliqqa tortish usulida hisoblanadi.

Turli davlatlarda QQS ni hisoblash tartibini ko`rib chiqamiz.

Rossiyada QQS ni hisoblash aralash hisobda kassa usuli va hisoblanish tamoyilida amalga oshiriladi va buning natijasida soliqqa tortish bazasi buziladi.

Masalan, soliqqa tortish obyekti bo`lib tovar (ish, xizmatlar) realizatsiya aylanmasi hisoblanadi, aylanma sodir etilgan sana deb tovar (ish, xizmatlar) uchun mablag` tushgan kun belgilangan va shuning uchun QQS ni davlat budjetiga to`lash majburiyati pul mablag`lari olgandan keyin vujudga keladi.

Davlat budjetiga to`lanishi lozim bo`lgan QQS miqdori xaridorlardan olingan soliq hamda ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga kiritilgani moddiy resurslarga to`langan soliq miqdorlari o`rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Bunday qarasa, QQS ni hisoblash jarayonining ikki qismi ham yagona tartibga to`g`ri kelishi kerak, ya`ni realizatsiya qilingan mahsulot uchun tushgan mablag`dan QQS hisoblansa, moddiy resurslarga to`langan QQS miqdorini ham chegirish uchun kassa usulida amalga oshirilishi lozim ko`rinadi. Ammo, Rossiyada realizatsiya qilingan mahsulotlarga kassa usulida QQS hisoblanadi va bunda chegirishga hisoblanadigan soliq summasi hisoblanish tamoyilida amalga oshiriladi.

Belarusda QQS hisobdan chiqarish uslubida hisoblanadi. Soliqni to`lash majburiyati kassa va aralash kassa yoki hisobga olib borish uslublarida amalga oshiriladi.

Ukrainada QQS hisoblash va uni to`lash majburiyatlarini vujudga kelishi kassa usuli asosida amalga oshiriladi.

Bu soliqni kiritish bozor iqtisodiyotiga o`tish davridagi boshqa davlatlarda ham xuddi shunga o`xshash tartiblar asosida amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tishni amalga oshirayotgan ko`pgina davlatlarda QQS ikki usulda hisoblanadi: ishlab chiqarish jarayonida hisobvaraq faktura usulidan, ulgurji va chakana savdo sohasida esa yalpi daromad (foyda)dan hisoblash qo`llanilgan. Fikran ulgurji va chakana savdo uchun yalpi daromad (foyda) bu ularning ustamasidir, demak, bu sohada QQS asosan ustama haq miqdoridan hisoblangan.

II BOB. MAMLAKATIMIZDA QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INI BUDJETGA UNDIRISH MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (Angor tuman DSI ma'lumotlari asosida).

2.1. Qo`shilgan qiymat solig`ining to`lovchilari, soliq obykti va soliq bazasini aniqlash tartibi.

Qo`shilgan qiymat solig`ining undirilish jarayonida davlat aslida yangi qiymatni taqsimlash qatnashchisiga aylanadi, tovar yoki xizmatni sotish paytida bu qiymatning bir qismini olishga o`z huquqi borligini ma`lum qiladi.

Qo`shilgan qiymat solig`ining to`lovchilari bo`lib, amaldagi qonun hujjatlariga asosan ushbu soliqni budjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:


- 1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo`lgan yuridik shaxslar;
- 2) O`zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo`shilgan qiymat solig`i to`lash bo`yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- 3) tovarlarni O`zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o`z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);
- 4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganida zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Tovarlar (ishlar, xizmatlarning) sotilishiga doir aylanmalar deganda yuklab jo`natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko`rsatiladigan xizmatlar tushuniladi. Tovarlarining sotilishida o`zi ishlab chiqargan va chetdan sotib olingan barcha tovarlarining sotilishiga doir aylanmalar soliq solish obykti hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga muvofiq qo`shilgan qiymat solig`i solish obykti bo`lib tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bo`yicha

aylanmalar hisoblanadi, qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilingan, o`z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanadiganlar bundan mustasno.

Buni quyidagi chizmada ham ko`rish mumkin:



1-chizma. **Qo`shilgan qiymat solig`i soliq solish obyekti**¹³

Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno) hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo`yicha soliq to`lovchilar qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar bo`lib hisoblanishmaydi.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan holda yagona soliq to`lovini to`lovchilar bo`lgan yuridik shaxslar soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to`lovini to`lovchilar bo`lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo`shilgan qiymat solig`ini to`lashi mumkin.

¹³ O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq tayyorlandi.

Amaldagi soliq kodeksining 198-moddasiga ko`ra qo`shilgan qiymat solig`ining obyekti bo`lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi.

Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda – yuklab jo`natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya`ni yuklab jo`natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag`i kelib tushishi davridan qat`i nazar korxona qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Qo`shilgan qiymat solig`ini aniqlashda realizatsiya bo`yicha soliq solinadigan aylanma miqdori realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar, xizmatlar qiymati asosida, qo`llaniladigan narxlar va ta`riflardan kelib chiqib, agar Tovar aksizosti mahsuloti bo`lsa, aksiz solig`ini hisobga olgan holda ularga qo`shilgan qiymat solig`ini kiritmasdan belgilanadi. Shu o`rinda, aksizosti mahsulotlarni realizatsiyasidan qo`shilgan qiymat solig`i hisoblanishida munozarali holat yuzaga keladi, chunki mahsulotdan hisoblangan aksiz solig`i qo`shilgan qiymat solig`i tortiladigan obyektga aylanadi, boshqacha qilib aytganda aksiz solig`idan yana bir marta soliq hisoblanadi. Bu to`g`ri budjetga qo`shilgan qiymat solig`i tushumini ko`paytiradi, lekin soliqqa tortilish tamoyillari haqida ham unutmasligimiz kerak. Bizning aksizosti mahsulotlardan qo`shilgan qiymat solig`i hisoblashda aksiz solig`ining soliq solinadigan aylanmaga kiritilmasligi hisob-kitoblarni ixchamlashtirish bilan bir qatorda, uni soliqqa tortish tamoyillariga moslashtirishga olib keladi.

Soliq solinadigan import deganda esa O`zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo`shilgan qiymat solig`idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari). Tovarlarni natural haq tarzda berilganda yoki kassa orqali o`z xodimlariga tannarx bahosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlar (ish va xizmatlar) ni ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatidan kam bo`lmagan miqdorda belgilanadi.

Soliq kodeksiga ko`ra quyidagilar tovarlarni (ish va xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti hisoblanmaydi:

1) soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan xarajatlar bundan mustasno);

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo'linmalar Soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

3) soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

4) garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan, shisha idishni jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

5) yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqanda (chiqib ketganda), shu jumladan, tugatilganlik, (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkida bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;

6) tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va obyektlarini bepul asosda berish;

7) bankning mol-mulkni o'z filiallariga berishi;

8) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ish va xizmatlar)ni, boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

9) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

10) ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

11) ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

12) obyekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovchining bir qismi tarzida qoplash.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlar) ni sotish oboroti hisoblanmaydi:

- soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o'z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan xarajatlar bundan mustasno);

- bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;

- soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

- garov qiymatiga ega bo'lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan, shisha idishni jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

- tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va obyektlarini bepul asosda berish;

- banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi va boshqalar.

2.2. Qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari va soliqdan imtiyozlar tahlili

Soliqlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta`siri, asosan, ularning stavkalari darajasining miqdori bilan belgilanadi. Soliq stavkalari respublika va mahalliy budjetlar xarajatlarini mablag` bilan ta`minlashda muvozanat darajasini hamda xo`jalik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Demak, ular moliya-budjet munosabatlarini sog`lomlashtirish bilan chambarchas bog`liqdir. Soliq stavkalari korxonalarning iqtisodiy mustaqilligini ta`minlaganlari holda, moliya-budjet munosabatlarining pul muomalasiga ko`rsatadigan salbiy ta`siriga barham bera olishi ham kerak. Bu esa, respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq islohotining muhim jihatini tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasida qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi 1992-yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir necha marotaba o`zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go`sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999-yilda Respublikada qo`shilgan qiymat solig`ining 3 xil stavkasi (20%, 15% va 0%) amalda qo`llanildi. Faqat 3 ta band, ya`ni eksport, qishloq xo`jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo`jalik korxonalariga beriladigan mineral o`g`it va yoqilg`i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar (ish, xizmatlar) “0” stavkasi bo`yicha soliqqa tortildi. 15% li qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi esa un, non, go`sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug`doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

2000-yildan hozirgi kungacha soliq kodeksiga ko`ra respublikamizda 20 foizli va “0” foizli stavka qo`llanilib kelinmoqda. Umuman olganda “0” stavka deganda korxona ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo`shilgan qiymat solig`i qo`llanilmaydi, ya`ni “0” ga teng degani.

Quyidagilarga “0” darajali stavka bo`yicha soliq solinadi:

- tovarlarning, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan ishlarning (ko'rsatiladigan xizmatlarning) erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlariga yetkazib berilishiga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

- ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armanistonda, Tojikistonda, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqqa tortilmaydi, "0" stavka ham qo'llanilmaydi. Qozog'istonda esa MDH dan tashqariga eksport "0" stavkada soliqqa tortiladi.

Eksport qilingan tovarlarni qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortish masalasida O'zbekiston bilan boshqa davlatlar o'rtasida davlatlararo bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan bo'lib, ammo ratifikatsiya qilinmagan (tasdiqlanmagan) holatlarda imtiyozni qo'llashning iloji bo'lmaydi, ya'ni imtiyoz qo'llash uchun qonuniy asos bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda Qirg'iziston, Ozarbayjon, Moldova, Rossiya, Qozog'iston bilan ham bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan. Shartnomada kelishilgan davlatlar bojxona hududlarida tovarlar (ish va xizmatlar) eksport qilinganda "0" stavkadagi qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash ko'zda tutilgan, shuningdek:

- chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovar (ish va xizmat) larga.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tadbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi:

- suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya va gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlarga;
- xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tiladigan tranzit yuklarni tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga, jumladan, yo'lovchilar, bagajlar va pochta xalqaro yo'nalishda tashish.

2006-yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar va yonilg'i moylash materiallariga "0" stavka bekor qilindi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli "0" stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan hisobga kiritiladi.

Agar hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan "0" stavkada qo'llanilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qoplash (ya'ni qaytarish) tartibi 2003-yil 13-maydagi hisob kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga undiriladigan to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan (30-sonli bayonnoma) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yuzaga kelgan manfiy farqni qoplash to'g'risida" gi Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizom Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 6-iyunda 1246-son bilan tasdiqlangan.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish yoki alohida bir tarmoqni rivojlantirishni rag'batlantirishda jahon tajribasida keng qo'llaniladigan

usullardan biri, soliq imtiyozini berishdir. Lekin soliq to'lashdan bir soliq to'lovchining ozod etilishi boshqa soliq to'lovchi zimmasiga ko'proq soliq yuki tushishi bilan bog'liq jarayondir. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilish yoki alohida soliqqa tortish tartibining joriy qilinishi xo'jalik subyektlarining ushbu soliq to'lashdan butunlay ozod etilganligini ko'rsatmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishda faqat ishlab chiqarilgan tovarlar realizatsiya qilinishida soliqqa tortilmaydi xolos. Lekin ushbu tovarni ishlab chiqarishga ketgan xom ashyo, materiallar avvaldan sotib olinish paytida qo'shilgan qiymat solig'iga tortilgandir. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik subyektlarining moliyaviy faoliyati uchun o'ziga xos ikki xususiyatga egadir. Birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan yoki alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo'jalik subyektlari o'z tovar va xizmatlarini sotganda ushbu tovar va xizmatlar tannarxiga ishlab chiqarish materiallarini sotib olish vaqtida to'lagan qo'shilgan qiymat solig'i kiritiladi va mahsulot bahosiga o'z-o'zidan qo'shilgan bo'ladi hamda boshqa ishlab chiqarish uchun tannarxning unsuri sifatida o'zida aks ettiradi.


Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinish haqida gap ketganda o'ziga xos noaniqlik yuzaga keladi. Chunki, yuqorida ko'rib o'tdikki, korxonalarning soliqdan ozod qilinishi bilan ular budjetga soliq to'lashdan ozod bo'ladi, lekin ishlab chiqarish uchun olingan va tovar-xizmatlarning tannarxiga o'tkazilgan xom ashyolarni sotib olishda ularga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchi xom ashyo, materiallarni sotib olishda to'lagan qo'shilgan qiymat solig'ini o'zida hisobdan chiqarishni talab qila olmaydilar va ular o'zlari xom ashyoni sotib olishda to'lagan qo'shilgan qiymat solig'ini tovar-xizmatlarini sotib oluvchilardan undirib olish huquqiga ega bo'lmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinish, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik subyektlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirining ikkinchi xususiyati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar va xizmatlarni sotib olayotgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi ro'yxatida

turgan xo`jalik subyektlari o`zlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun soliq kreditidan foydalana olmaydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchi qo`shilgan qiymat solig`ini to`lashda tovarlarni sotishda hisoblangan soliq va materiallarni sotib olish paytida to`lagan soliq orasidagi farqni to`lamay, balki sotish aylanmasidan hisoblangan soliqni to`liq to`lashga majbur bo`ladi. Buning natijasida qo`shilgan qiymat solig`iga tortish zanjirida soliqdan ozod qilingan bo`linma tushib qolishi tufayli qo`shilgan qiymatning birmuncha katta qismi soliqqa tortiladi va soliq to`lash og`irligi keyingi bo`linma zimmasiga tushadi. Demak qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha berilgan imtiyozlar oxirgi iste`molchilarga nisbatan qo`llanilmasa, korxonalarning bir-biri bilan bo`ladigan iqtisodiy munosabatlariga salbiy ta`sir etadi. Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha berilgan imtiyozlarni qisqartirish, asosan tibbiyot, ijtimoiy ahamiyatga ega va eksportga yo`naltiriladigan tovarlargagina imtiyozlarni saqlab qolish zarur.

Qo`shilgan qiymat solig`idan berilgan imtiyozning korxonalar ishlab chiqarish faoliyatiga va narxlar ta`siri masalasiga batafsil to`xtalib o`tadigan bo`lsak, soliqdan ozod qilingan subyektlar o`z ishlab chiqarish faoliyatiga zarur bo`lgan resurslarni qo`shilgan qiymat solig`i bilan birgalikda sotib oladilar va ushbu soliq miqdorini ular bajarilgan ishlar tannarxiga qo`shadilar. Bu bajarilgan ishlar narxining o`z-o`zidan oshishiga olib keladi. Agar korxona bajarilgan ishlar narxini oshira olmasa, u ushbu ishlarni bajarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishi lozim (aksariyat hollarda ishlovchilarning ish haqi kamaytiriladi, bu esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati pasayishiga olib keladi). Bu o`rinda birinchi holatda qo`shilgan qiymat solig`i iste`molga, ikkinchisida esa ishlab chiqarishga ta`sir ko`rsatadi.

Qo`shilgan qiymat solig`idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko`proq imtiyozlar ko`zda tutilgan bo`lib, ular Soliq kodeksida to`rt guruhga bo`lib berilgan.

Buni quyidagi 2-chizmada ham ko'rish mumkin:



2-chizma. **Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar**¹⁴

- 1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);
- 2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);
- 3) soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari (210-modda);
- 4) soliqdan ozod etiladigan import.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq tayyorlandi.

Qo`shilgan qiymat solig`idan quyidagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

- davlat organlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko`rsatiladigan, davlat boji va yig`imlar undiriladigan xizmatlar;

- maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

- bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

- dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o`tkazishga doir xizmatlari;

- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo`ljallangan inventarlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek, nogironlarga ko`rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo`ljallangan inventarlarni ta`mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo`yicha xizmatlar;

- davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

- pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

- aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to`lash bo`yicha xizmatlari;

- budjet mablag`lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining budjetdan mablag`lar ajratish to`g`risidagi xulosasi asosdir;

- shahar yo`lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan, yo`nalishli taksidan tashqari), shuningdek, temiryo`l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan, yo`nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo`nalishlarda yo`lovchilar tashish xizmatlari;

- oliy, o`rta, o`rta-maxsus, kasb-hunar o`quv yurtlarida, shuningdek, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug`ullanuvchi tashkilotlarda ta`lim berishning haq evaziga o`qitishga doir qismi bo`yicha xizmatlar;

- vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirilgan qimmatbaho metallar;

- chet el havo kemalariga xizmat ko`rsatish yuzasidan bevosita O`zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O`zbekiston Respublikasining havo bo`shlig`ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan, aeronavigatsiya xizmati;

- sanatoriy-kurort, sog`lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari;

- gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

- geologiya va topografiya ishlari;

- O`zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O`zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

- O`zbekiston Respublikasi hududidan eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, tushirish, qayta yuklash, ekspeditsiya qilishga doir xizmatlar, ishlar;

- O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo`yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek, grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

- uy-joy fondini saqlash va ta`mirlash yuzasidan aholiga ko`rsatilayotgan xizmatlar;

- aholini elektr energiyasi bilan ta`minlash;

- davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o`rgatish xizmatlari;

- o`zi yetishtirgan qishloq xo`jaligi mahsuloti;

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo`riqlov bo`linmalari xizmatlari;

- va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oborotlar.

Moliyaviy xizmatlarning quyidagi turlari qo`shilgan qiymat solig`idan ozod etilgan:

- to`lovlar, o`tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to`lov vositalari bilan bog`liq operatsiyalar, inkasso bo`yicha operatsiyalar;
- milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog`liq operatsiyalar;
- qimmatli qog`ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog`ozlar) bilan bog`liq operatsiyalar;
- akkreditivlar ochish va ularga xizmar ko`rsatish;
- pul mablag`larini konvertatsiya qilish bo`yicha operatsiyalar;
- chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;
- kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);
- forfeiting va factoring operatsiyalari;
- lombard operatsiyalari (garovga qo`yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);
- jamg`arib boriladigan pensiya tizimi mablag`larining oboroti;
- va boshqa oborotlar.

Qo`shilgan qiymat solig`idan ozod etilgan sug`urta xizmatlari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

1) sug`urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilinadi:

a) sug`urta qilish, birgalikda sug`urta qilish va qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha sug`urta mukofotlari;

b) qayta sug`urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo`yicha vositachilik haqi va tanyemalar;

d) sug`urta agenti, sug`urta va qayta sug`urta brokeri, syurveyyer hamda sug`urta bozorining professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

e) qayta sug`urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo`yicha sug`urta to`lovlari ulushining qayta sug`urtalovchilar tomonidan to`lanadigan to`lovini;

f) sug`urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko`rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

h) qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha depo mukofotiga hisoblangan hamda qayta sug`urta qildiruvchi tomonidan qayta sug`urtalovchiga o`tkazilgan foizlar;

i) hayotni sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha sug`urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

j) sug`urtalovchining (qayta sug`urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan, sug`urta rezervlari va sug`urta fondlari mablag`larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug`urta qilish, birgalikda sug`urta qilish va qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha franshizlarini qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug`urtalovchiga o`tgan, sug`urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug`urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo`yicha sug`urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalar;

n) bevosita sug`urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug`urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilinadi:

a) sug`urta to`lovi (sug`urta tovon);

b) preventive tadbirlar o`tkazish uchun beriladigan mablag`lar;

d) sug`urta qilish shartnomasi uchun beriladigan mablag`lar;

e) sug`urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag`lar.

Tovarlarni import qilishda quyidagi hollarda qo`shilgan qiymat solig`idan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalari rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) davlatlar, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari hisobidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari, shuningdek, dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari ishlab chiqarish uchun olib kirilayotgan xomashyo;

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarini yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xomashyo, materiallar va yarim mahsulot.

2.3. Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni korxona ortib boruvchi yakun bilan ro'yxatdan o'tgan joyidagi Davlat soliq idoralariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar hisoblangan mikrofirma va kichik korxonalar yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda taqdim etadi.

Soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtda hisobot davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-faktura reyestrini ham taqdim etadilar. Hisobvaraq-fakturalar reyestrining shakli davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Hisobotlarni o'z vaqtida topshirmaslik korxona va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan Davlat soliq idoralari tomonidan moliyaviy va ma'muriy jazo choralarini qo'llanishiga olib keladi.

Korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ini soliq hisobini topshirgan kundan kechiktirmay tegishli davrdagi haqiqiy sotish oborotidan kelib chiqib to'laydi. Agar korxona hisoblangan soliq summasini budjetga o'z vaqtida o'tkazib bermasa, bunday holatda Davlat soliq idoralari mas'ul xodimlari tomonidan

hisoblangan soliq summasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun 0,05 foiz miqdorida penya (moliyaviy jazo) qo`llanilishiga olib keladi. Bunda korxona rahbariyatiga nisbatan ma`muriy chora qo`llanilmaydi.

1998-yil 1-yanvardan O`zbekistondagi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun, shu jumladan, soliqqa tortishning alohida tartibi o`rnatilgan kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda qo`shilgan qiymat solig`idan ozod bo`lgan korxonalar ham tovarlarni sotganda, ish va xizmatlar ko`rsatganda hisobvaraq-fakturani to`ldirishi qonun asosida shart qilib belgilab qo`yildi.

Hisobvaraq-faktura mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yuklab jo`natilishi, ish va xizmatlar ko`rsatilishi sanasi (kuni)dan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvaraq-fakturada – uning tartib raqami va yozilgan sanasi, jo`natiladigan tovarlar bo`yicha shartnomalar raqami va sanasi hamda soliq to`lovchi va xaridorning nomi, manzili, STIRi va shu kabi rekvizitlari ko`rsatiladi.

Jadvalli shaklni to`ldirishda quyidagilarni qayt etish kerak:

- 1-ustunda tovarlar (ish va xizmatlar) nomi;
- 2-ustunda tovarlarning o`lchov birligi (dona, metr, kg va hokazo);
- 3-ustunda yuklab jo`natiladigan tovarlarning miqdori va soni;
- 4-ustunda tovarlarning shartnoma bo`yicha qo`shilgan qiymat solig`isiz narxi;
- 5-ustunda tovarlarning jami yetkazib berish qiymati (qo`shilgan qiymat solig`isiz);
- 6-ustunda qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi, agar qo`shilgan qiymat solig`idan ozod bo`lsa, chiziqcha tortib qo`yiladi;
- 7-ustunda jo`natilayotgan tovarlar bo`yicha tegishli stavkalarga ko`ra hisoblangan qo`shilgan qiymat solig`i summasi;

- 8-ustunda jo`natilayotgan tovarlarning qo`shilgan qiymat solig`i bilan hisoblangan summasi.

Soliq kodeksiga ko`ra qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchisi bo`lmagan, shuningdek, qo`shilgan qiymat solig`i to`lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar 6- va 7-ustunga “qo`shilgan qiymat solig`i summasiz” degan shtampini qo`yishadi. Agar shtamp bo`lmasa qo`lda yozib qo`yishadi va 8 ustunni to`ldirishmaydi.

So`ngi yillardagi soliq siyosatining tahlili davlat budjetining daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar ulushining ancha o`sayotganini hamda bevosita soliqlar salmog`ining kamayayotganini ko`rsatmoqda. Chunonchi, 2013-yilda budjetga soliq tushumlarining 66 foizdan ortig`ini bilvosita soliqlar, mol-mulk solig`i va resurs to`lovlari tashkil etgan. Buni quyidagi jadvalda ham ko`rish mumkin:

6-jadval

O`zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy ko`rsatkichlari dinamikasi¹⁵

Ko`rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln.so`m	jami nis-n % da	mln.so`m	jami nis-n % da	mln.so`m	jami nis-n % da
Davlat maqsadli jamg`armalar daromadlarisiz – jami	16178563,5	100	20614100,0	100	25104900,0	100
To`g`ri soliqlar	4238732,8	26,2	5196400,0	25,2	6583100,0	26,2
Egri soliqlar	8656853,1	53,5	11187800,0	54,3	13039400,0	51,9
Mol-mulk solig`i va resurs to`lovlari	2308908,7	14,3	2746400,0	13,3	3755500,0	15,0
Ustama foyda solig`i	142314,4	0,8	250000,0	1,2	294500,0	1,2
Boshqa daromadlar	831754,5	5,1	1233500,0	6,0	1432400,0	5,7

Yuqoridagi jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, O`zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari yil sayin o`sib borganligiga amin bo`lamiz. Zero, 2011-yilda budjet daromadlari jami 16178563,5 mln.so`mni

¹⁵ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

tashkil etgan bo`lsa, 2013-yilga kelib 25104900,0 mln.so`mga yetmoqda. Budget daromadlarini shakllantirishda egri soliqlarning o`rni muhim ahamiyatga ega bo`lib, bu turdagi soliqlar 2011-yilda 8656853,1 mln.so`mni tashkil qilgan bo`lsa, 2013-yilda 13039400,0 mln.so`mni tashkil etmoqda. To`g`ri soliqlar bo`yicha tushumlar esa 2011-yilda 4238732,8 mln.so`mni tashkil qilgan bo`lsa, 2013-yilda 6583100,0 mln.so`mni tashkil etmoqda. Budget daromadlarida resurs soliqlari alohida ahamiyatga ega. Bu soliq yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanishni ta`minlaydi. Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, davlat budjetiga kelib tushadigan resurs to`lovlari va mol-mulk solig`ining dinamikasi o`sish an`anasiga ega. 2011-yilda Respublika budjetiga mln.so`mlik resurs 2308908,7 to`lovlari to`langan bo`lsa, 2013-yilda 3755500,0 mln.so`mlik ushbu turdagi soliqlar davlat budjetiga kelib tushmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan izchil soliq-budget siyosati davlat budjeti daromadlar qismida muayyan ulushni egallovchi budjetning boshqa daromadlari dinamikasiga o`zining ta`sirini o`tkazgan. Masalan, 2011-yilda davlat budjetida boshqa daromadlar 831754,5 mln.so`mni tashkil qilgan bo`lsa, 2013-yilga kelib, ularning miqdori ko`paygan hamda 1432400,0 mln.so`mga teng bo`lgan.

Qo`shilgan qiymat solig`ini faoliyat yuritayotgan “Angor paxta” OAJ misolida ko`rib o`tamiz. Mazkur jamiyatning 2013 yil yakuni bo`yicha qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha hisob-kitoblarini tahlil etamiz.

“Angor paxta” OAJ ning qo`shilgan qiymat solig`i hisob-kitobi (ming so`m hisobida)¹⁶


Ko`rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo`shilgan qiymat solig`i (QQS) summasi (2-ilovaning 050-satri)	10	440 344,3
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo`yicha tushumlarning soliq davriga kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (3-ilovaning 050-satri)	20	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr+020-satr)	30	440 344,3
Tovarlarni (ishlarni,xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti QQS summasi (4-ilovaning 010-satr 4-ustun)	40	2 258 135,2
Budjetga to`lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-030 satr), shu jumladan oy oxiri:	50	1 817 790,8
chorakning birinchi oyi uchun		1 448 492,8
choraknng ikkinchi oyi uchun		1 706 840,6
chorakning uchinchi oyi uchun		1 817 790,8

Qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Soliq to`lovchilar, bundan kredit va sug`urta tashkilotlari mustasno, qo`shilgan qiymat solig`ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha hisobvaraq-fakturalar

¹⁶ “Angor paxta” OAJining yillik hisoboti asosida tayyorlandi

reyestrini taqdim etadi. Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-fakturalar reyestrlarini taqdim etadi.

Buni quyidagi 3-chizmada ham ko'rish mumkin:



3-chizma. **Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash tartibi**¹⁷

Soliqlarning budjetga o'tkazilishi soliq kodeksining 226-moddasiga muvofiq kichik korxona va mikrofirmalar uchun har chorakda boshqa korxona tashkilotlar uchun esa qo'shilgan qiymat bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish muddatidan kechiktirilmaydi. Import tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i bojxona idoralari tomonidan 5 kun muddat ichida davlat budjetiga o'tkaziladi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq tayyorlandi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INI UNDIRISH MEXANIZMINING TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI.

3.1. Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash va budjetga to`lash mexanizmidagi mavjud muammolar va ularni barataraf etish masalalari

Qo`shilgan qiymat solig`ining amaldagi mexanizmini takomillashtirish bo`yicha quyida keltiriladigan o`z fikrlarimizni ta`kidlab o`tmoqchimiz.

Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha berilgan amaldagi soliq imtiyozlarini o`rganish natijalari shuni ko`rsatdiki, soliq imtiyozlari ishlab chiqarish jarayonlarini rag`batlantirish va davlat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonlariga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Buning asosiy sababi, birinchidan, kichik biznes korxonalarini rivojlantirish maqsadida qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilinadigan oborot summasi belgilab qo`yilmagan; ikkinchidan, xalqaro amaliyotda soliq imtiyozlari sonining cheklanganligi sharoitida kutilgan samaraga erishishi mumkinligi isbotlangan, respublikamizda esa qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha 78 operatsiya va faoliyat turlari bo`yicha soliq imtiyozlari belgilangan; uchuinchidan, qo`shilgan qiymat solig`ining bazasiga nafaqat foyda va ish haqi balki, amortizatsiya ajratmalari, aktsizlar va boj soliqlari ham kiradi. Bu esa, ishlab chiqarish jarayoniga qo`shilgan qiymat solig`ining salbiy ta`sirini yuzaga keltiradi. Bizning fikrimizcha, mazkur holatlar soliq imtiyozlarini belgilashda hisobga olinishi lozim.

Barcha mahsulot va ish, xizmatlarni bajaruvchilar qo`shilgan qiymat solig`ini to`laydilar yoki ozod bo`ladilar, ba`zi bir guruhdagi xo`jalik sub`ektlariga esa qo`shilgan qiymat solig`i to`lash o`rniga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i to`lash o`rniga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo`jalik sub`ektlariga yagona soliq to`loviga o`tgan kichik korxona va

mikrofirmalar, yagona yer solig'i to'lashga o'tgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari kiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lish, alohida soliqqa tortish tartibining joriy qilinishi xo'jalik sub'ektlarining soliq to'lashi bo'yicha majburiyatlaridan to'liq ozod etilishini bildirmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishida faqat ishlab chiqarishda hosil bo'lgan qo'shilgan qiymatgina soliqqa tortilmaydi. Lekin ushbu qo'shilgan qiymatni hosil qilishga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari ilgaritdan qo'shilgan qiymat solig'iga tortilgandir. Shunday qilib, xo'jalik sub'ektlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi yoki alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi haqida gapirilganda ular tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblamasligi va uni budjetga to'lamasligi e'tibor berishimiz, biroq ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish xom ashyolar uchun, yonilg'i-moylash materiallari, elektroenergiya, boshqa materiallarga, shuningdek ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish vositalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyati uchun o'ziga xos ikki xususiyatga egadir. Chunki ular xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi. Birinchi xususiyati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo'jalik sub'ektlari o'z tovar va xizmatlarini sotganda ushbu tovar va xizmatlar tannarxida ishlab chiqarish materiallarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i to'g'ridan-to'g'ri kiritadi, hamda boshqa ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish tannarxining elementi sifatida o'zida aks ettiradi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi haqida gap ketganda o'ziga xos so'z o'yini bo'ladi. Chunki soliqdan ozod qilinishi bilan budjetga soliqdan ozod bo'ladi, lekin ishlab chiqarish uchun olingan mahsulot va xizmatlarning tannarxiga boradigan xom-ashyolarni sotib olishda ularga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchi xom ashyo materiallarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini o'ziga hisob qilishga talab qila olmaydi va

ular qo'shilgan qiymat solig'ini o'z tovar-xizmatlarini sotib oluvchidan olishga huquqi bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan hamda alohida soliqqa tortish tartibi joriy etilgan xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirining ikkinchi xususiyati shundaki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar va xizmatlarni sotib olayotgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi ro'yxatda turgan xo'jalik su'bekti o'zi tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsulotlar uchun soliq kreditidan foydalana olmaydi. Shu tufayli ishlab chiqaruvchiga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashda mahsulotlarni sotishda hisoblangan soliq va mahsulotlarni sotib olishda to'lagan soliq orasidagi farqni to'lamay, balki sotish oborotidan hisoblangan soliqni to'liq to'lashga majbur bo'ladi. Buning natijasida qo'shilgan qiymat solig'iga tortish zanjirida soliqdan ozod qilingan bo'linma tushib qolishi tufayli qo'shilgan qiymat soliqqa bir necha marotaba tortiladi va soliq to'lash og'irligi keyingi bo'linma zimasi tushadi. Chunki u soliqdan ozod qilingan mahsulotlarni o'z ishlab chiqarishi uchun ishlatadi. Qanchalik qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan mahsulotlar va ishlab chiqaruvchilar ko'paysa, qo'shilgan qiymat ikki yoki undan ortiq marta soliqqa tortilishi ehtimoli ko'paya boradi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi, alohida soliqqa tortish tartibi qo'shilgan qiymat solig'ining mahsulotlar bahosiga va xo'jalik sub'ektlarining soliqdan ozod qilingan ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri katta bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tdikki soliqdan ozod qilingan xo'jalik su'bekti ishlab chiqarish resurslarini ko'p hollarda qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladilar va bu soliqni o'z ishlab chiqarish xarajatlariga to'liq qo'shadilar. Buning natijasida mahsulotning bahosi oshishga olib kelinadi. Agar ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotining bahosini oshirishga imkoni bo'lmasa, u holda mahsulot bahosini oshirmaslik uchun ishlab chiqarish omillarini kamaytirishga majbur bo'ladi. Aks holda ishlab chiqaruvchi kam foyda olishga majbur bo'ladi.

Shunday qilib, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilish tufayli korxona o'z mahsuloti bahosini oshirishga majbur bo'ladi yoki aks holda foyda miqdorini

yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga majbur bo'ladi. Birinchi holda, qo'shilgan qiymat solig'i ist'emolga ta'sir qilib, bahoni oshirishga olib keladi, ikkinchi holda esa, ishlab chiqarishga ta'sir qilib, foydani kamaytirishga olib keladi.

Soliqdan berilgan imtiyozlar ta'sirini xo'jalik faoliyatini va mahsulot bahosi antimonopol qonunlari bilan tartibga solinadigan korxonalarda ham ko'rish mumkin. Bu korxonalar shaharda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanadigan korxonalar, uy-joy qurilishi bilan shug'ullanadigan korxonalar bo'lishi mumkin. Bu korxonalarga soliq qonunchiligi bilan soliq imtiyozlari berilgan. Bu korxonalar mahsulot va xizmatlar bahosini oshira olmaydi. Natijada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qilingan moddiy xarajatlar korxona foydasida yoki ularning zararini ko'payishiga olib keladi. Xalqaro soliq qonunchiligida bu kabi salbiy holatlarni oldini olish maqsadida soliq imtiyozlari kamaytirilmokda.

Tadqiqot ishimizning ushbu bobiga yakun yasab qilingan mushohadalarga asoslanib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Bilvosita soliqlar, asosan QQS va aktsizlar to'laligicha iste'molchi zimmasiga to'g'ri keladi. Lekin ular ishlab chiqaruvchi faoliyatiga ikki jihatdan ta'sir etadi:

-Soliq summalari korxona hisob raqamiga pul hali kelib tushmasidan to'lanadi;

-Bilvosita soliqlar narxlarini maksimal darajaga etkazib, sotish hajmini kamaytiradi.

QQS eng jiddiy tahlil va optimallashtirishni talab qiladi, chunki u birinchidan, korxona-ishlab chiqaruvchining oraliq iste'mol tovarlari jarayonida narxni oshiradi. Ikkinchidan, tamoyilan ikki yoqlama soliqqa tortishni nazarda tutadi.

Rivojlangan davlatlar soliq tizimidagi islohatlardagi ilg'or tajribalarini O'zbekiston Respublikasida qo'llashda davlatimizning iqtisodiy va soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari nuqtai nazaridan ko'rib

chiqilishi lozim. Bu albatta o'tkazilayotgan soliq siyosati islohatlarining ijobiy istiqbolini ta'minlaydi.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga undirish tartibini takomillashtirish.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan keyin iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi soliq tizimini ham navbatma navbat iqtisodiyotga mos ravishda takomillashtirib borilishini taqozo etadi. Bu haqda Prezidentimiz to'xtalib shunday deganlar: "Qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasining kamaytirilishi oqibat natijada ishlab chiqarishni jonlantirishga olib kelishi lozimki, bu narsa iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini xalq etishda g'oyat katta ahamiyatga ega"¹⁸. Qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish jarayoni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib amalga oshirilishi yuqori samara berishiga shubha yo'q. Shundan kelib chiqib, yuqori darajadagi bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda to'plangan barcha ijobiy tajribalardan foydalanish kerakki, bunda ayniqsa Yevropa rivojlangan mamlakatlari, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarda foydalanilayotgan soliqqa tortish tizimi katta qiziqish uyg'otadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining amaldagi mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyida keltiriladigan o'z fikrlarimizni ta'kidlab o'tmoqchimiz. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan amaldagi soliq imtiyozlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, soliq imtiyozlari ishlab chiqarish jarayonlarini rag'batlantirish va davlat byujeti daromadlarini shakllantirish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning asosiy sababi, birinchidan, kichik biznes korxonalarini rivojlantirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan oborot summasi belgilab qo'yilmagan; ikkinchidan, xalqaro amaliyotda soliq imtiyozlari sonining cheklanganligi sharoitida kutilgan samaraga erishishi mumkinligi isbotlangan, Respublikamizda esa qo'shilgan

¹⁸ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1998.-360-b.

qiymat solig'i bo'yicha 78 operatsiya va faoliyat turlari bo'yicha soliq imtiyozlari belgilangan; uchinchi, qo'shilgan qiymat solig'ining bazasiga nafaqat foyda va ish haqi balki, amortizatsiya ajratmalari, aksizlar va boj soliqlari ham kiradi. Bu esa, ishlab chiqarish jarayoniga qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi. Bizning fikrimizcha, mazkur holatlar soliq imtiyozlarini belgilashda hisobga olinishi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lish, alohida soliqqa tortish tartibining joriy qilinishi xo'jalik subyektlarining soliq to'lashi bo'yicha majburiyatlaridan to'liq ozod etilishini bildirmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishida faqat ishlab chiqarishda hosil bo'lgan qo'shilgan qiymatgina soliqqa tortilmaydi. Lekin ushbu qo'shilgan qiymatni hosil qilishga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari ilgaritdan qo'shilgan qiymat solig'iga tortilgandir. Shunday qilib, xo'jalik subyektlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi yoki alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi haqida gapirilganda ular tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblamasligi va uni budjetga to'lamasligi e'tibor berishimiz, biroq ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish xom ashyolar uchun, yonilg'i moylash materiallari, elektroenergiya, boshqa materiallarga, shuningdek ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish vositalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik subyektlari moliyaviy faoliyati uchun o'ziga xos ikki xususiyatga egadir. Chunki ular xo'jalik subyektlarining moliyaviy faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi. Birinchi xususiyati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo'jalik subyektlari o'z tovar va xizmatlarini sotganda ushbu tovar va xizmatlar tannarxida ishlab chiqarish materiallarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini to'g'ridan-to'g'ri kiritadi, hamda boshqa ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish tannarxining elementi sifatida o'zida aks ettiradi. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi haqida gap ketganda o'ziga xos so'z o'yini bo'ladi. Chunki soliqdan ozod qilinishi bilan budjetga soliqdan ozod bo'ladi, lekin ishlab

chiqarish uchun olingan mahsulot va xizmatlarning tannarxiga boradigan xom-ashyolarni sotib olishda ularga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchi xom ashyo materiallarini sotib olishda to'lagan qo'shilgan qiymat solig'ini o'ziga hisob qilishga talab qila olmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'ini o'z tovar-xizmatlarini sotib oluvchidan olishga huquqi bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan hamda alohida soliqqa tortish tartibi joriy etilgan xo'jalik subyektlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirining ikkinchi xususiyati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar va xizmatlarni sotib olayotgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi ro'yxatda turgan xo'jalik subyekti o'zi tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsulot uchun soliq kreditidan foydalana olmaydi. Shu tufayli ishlab chiqaruvchiga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashda mahsulotlarni sotishda hisoblangan soliq va mahsulotlarni sotib olishda to'lagan soliq orasidagi farqni to'lamay, balki sotish oborotidan hisoblangan soliqni to'liq to'lashga majbur bo'ladi. Buning natijasida qo'shilgan qiymat solig'iga tortish zanjirida soliqdan ozod qilingan bo'linma tushib qolishi tufayli qo'shilgan qiymat soliqqa bir necha marotaba tortiladi va soliq to'lash og'irligi keyingi bo'linma zimmasiga tushadi. Chunki u soliqdan ozod qilingan mahsulotlarni o'z ishlab chiqarishi uchun ishlatadi. Qanchalik qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan mahsulotlar va ishlab chiqaruvchilar ko'paysa, qo'shilgan qiymat ikki yoki undan ortiq marta soliqqa tortilishi ehtimoli ko'paya boradi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishi, alohida soliqqa tortish tartibi qo'shilgan qiymat solig'ining mahsulotlar bahosiga va xo'jalik subyektlarining soliqdan ozod qilingan ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri katta bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tdikki, soliqdan ozod qilingan xo'jalik subyekti ishlab chiqarish resurslarini ko'p hollarda qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladilar va bu soliqni o'z ishlab chiqarish xarajatlariga to'liq qo'shadilar. Buning natijasida mahsulotning bahosi oshishiga olib kelinadi. Agar ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotining bahosini oshirishga imkon bo'lmasa, u holda mahsulot bahosini

oshirmaslik uchun ishlab chiqarish omillarini kamaytirishga majbur bo`ladi. Aks holda ishlab chiqaruvchi kam foyda olishga majbur bo`ladi.

Shunday qilib, qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilish tufayli korxona o`z mahsuloti bahosini oshirishga majbur bo`ladi yoki aks holda foyda miqdorini yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga majbur bo`ladi. Birinchi holda qo`shilgan qiymat solig`i iste`molga ta`sir qilib, bahoni oshirishga olib keladi, ikkinchi holda esa, ishlab chiqarishga ta`sir qilib, foydani kamaytirishga olib keladi.

XULOSA

Tabiiyki, ishlab chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlarni bosib o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. Tovarlarini ishlab chiqarish va sotish jarayonida ishtirok etuvchi har bir ishtirokchi qo'shilgan qiymatning ustiga o'zining hissasini qo'yadi. Shuning uchun, tovarlarni va xizmatlarni qiymati ularni ishlab chiqarish va sotish jarayonida qo'shilgan qiymatlarning umumiy summasiga teng bo'ladi. Shunday qilib, qo'shilgan qiymat egri soliqlarni undirish uchun birlamchi obyektiv asos bo'lib hisoblanadi.

Respublika soliq tizimi, jumladan, soliq turlari, ularni hisoblash va undirish mexanizmi ham takomillashib, dunyo standartlariga tobora yaqinlashtirilmoqda. Soliqlarning, ayniqsa iste'molga solinadigan egri soliqlarning iqtisodiyotda tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 1992 yilda amalda bo'lgan 30 foizdan hozirgi davrga kelib 20 foizga qadar pasaytirilganligi va mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida chetdan import qilinadigan ayrim tovarlarga nisbatan aktsiz va qo'shilgan qiymat soliqlarining joriy qilinishi respublikani soliq tizimida egri soliqlarning muhim o'rin egallashidan dalolat beradi.

Respublika soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati, vazifalari va ularni soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri hamda budget daromadidagi hissasini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

1-xulosa. Hozirgi davrda mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'i va ularning amal qilish mexanizmi asoslari ishlab chiqilgan.

2-xulosa. Qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy betaraflik shakli sifatidagi eksportga soliqlarni aniq belgilash va qaytarish imkoniyatini yaratadi;

3-xulosa. Tashqi savdoga nisbatan betaraf, tovarlarni ichki ishlab chiqarish va sotish borasida aralashuvlarni keltirib chiqarmaydi;

4-xulosa. Ishlab chiqarishning ko'p meh yoki sarmoya talab qiladigan tarmoqlariga, mulkchilik shakliga ta'sir qilmaydi;

5-xulosa. Davlat daromadlarining manbai sifatida barqaror, ishonchli va tushunish uchun nisbatan engil soliqqa tortish vositasi.

Bizning fikrimizcha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi talablarga javob berishi lozim:

6-xulosa. Qo'shilgan qiymat solig'ining maqsadlarini amalga oshirish uchun uning bazasi lozim darajada keng bo'lishi, tovarlar va xizmatlarning imkoni boricha ko'p sonini qamrab olishi zarur;

7-xulosa. Qo'shilgan qiymat solig'i biznesning shakl va usullarini tanlashga, shuningdek, iste'molchilarning tovarlarni tanlashiga ta'sir qilmasligi kerak, bu soliq kreditining qisqa muddatda kaytarilishini, qo'shilgan qiymat bazasining barcha iste'mol tovarlariga, ya'ni xom ashyo, oraliq mahsulotlar, ishlab chiqarish maqsadidagi tovarlarga taalluqli bo'lishini taqozo etishi;

8-xulosa. Qo'shilgan qiymat solig'i pirovard maqsad tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak. Bu import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ining ichki mahsulotga soliqdan farq qilmasligi kerakligini, eksport tovarlarining qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmasligini bildiradi. Shuningdek, bu soliq turi soliq to'lovchilarning tushunib etishi uchun sodda va engil bo'lishi kerak.

9-xulosa. Qo'shilgan qiymat solig'idan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishda, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishga imkoniyat yaratib berishda hamda byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida foydalanish lozim.

Shu maqsadda, qo'shilgan qiymat solig'ini shakllantirish va rivojlantirish quyidagilar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- Soliq to'lovchilarning faoliyati, soliq ob'ektiga nisbatan soliq stavkasini belgilashga ilmiy yondashish;

- Respublika va mahalliy byudjetlarga qo'shilgan qiymat solig'idan tushumni ilmiy yondashgan holda ko'rib chiqish;

- Qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirishda murakkab vazifalar qo'yilayotgan bir paytda, qo'shilgan qiymat solig'idan muammolarni chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Shuning uchun ham qo'shilgan qiymat solig'ining ijtimoiy ahamiyatini alohida-alohida mezon sifatida olib, bajarish zarur bo'lgan vazifalarni belgilash ana shu muammo doirasida amalga oshirilmog'i kerak.

Qo'shilgan qiymat solig'idagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yoki uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini respublikamizdagi yutuq va kamchiliklarni hisobga olgan holda hamda tajribasi yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidagi yutuqlarini hisobga olib yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz:

1-taklif. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmining soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish va mazkur soliq bo'yicha tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini joriy qilish lozim;

2-taklif. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq taqdim etilayotgan imtiyozlar va noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan qo'llanilayotgan moliyaviy sanksiyalar hamda jarimalar tartibini kompleks tarzda tahlil qilish asosida, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ini byudjet daromadlarini shakllantirish darajasidagi tarkibini e'tiborga olgan holda soliq imtiyozlarini berish va jarima solishning aniq chegaralarini aniqlash lozim.

3-taklif. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, QQSning ortib jo'natilgan usulidan to'liq foydalanishda haridorlar uchun iqtisodiy noqulay holatlar vujudga kelmoqda. Albatta, bu holat vaqtinchalik harakterga ega bo'lib, bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tganimizdan keyin o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketishi mumkindir. Ammo hozirgi kundagi vaziyat sotuvchi va ishlab chiqaruvchi, haridor va iste'molchiga nisbatan noqulay tenglikda bo'lmoqda. Ya'ni haridorlar iqtisodiy tomondan ustuvor moliyaviy qulayliklarga ega bo'lyapti.

Ko'rsatib o'tilgan takliflar va tadqiqot natijalari respublikamizda byudjet tizimi islohotlari samaradorligini oshirishga, soliq-byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ–huquqiy hujjatlar:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.:O'zbekiston, 2012
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: NORMA, 2013
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni. //Xalq so'zi, 29 avgust 1997 y.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Budjet tizimi to'g'risida”gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr. /Soliqlar va bojxona xabarlar. 2001 y. № 2.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'risida” gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi qarori. 2009 yil 22 dekabr. (PQ-1245.)
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi qarori. 2008 yil 29 dekabr. (PQ-1024.)
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrofimalar va kichik

korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmoni (2005 yil 20 iyun).

- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3619-sonli Farmoni (2005 yil 14 iyun).
- 1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-100-sonli Qarori (2005 yil 15 iyun).
- 1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (18.05.2009 yil).

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning
asarlari va ma'ruzalari:**

- 1.14. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'jallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2014 yil 18-yanvar 13-soni.
- 1.15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010. – 80 bet.
- 1.16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/ I.A. Karimov.- T.: "O'zbekiston", 2009. – 56 bet.
- 1.17. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va mod'yernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012-yilning asosiy

yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2013 yil 19 yanvar.

- 1.18. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: “O'zbekiston”, 2005. - 89 b.
- 1.19. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: “O'zbekiston”, 2005

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

- 2.1 Алиев Б.Х. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Финанси и статистика”, 2008
- 2.2 Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya Darslik. –T.: “Noshir”, 2011
- 2.3 Vahobov A. Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent.”Sharq”, 2009. – 447b
- 2.4 Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma.-T.: “Norma”, 2007- yil
- 2.5 Дмитриева Н.Г., Дмитриев Д.Б. Налоги и налогообложение. /Феникс, 2004 г.
- 2.6 Естигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. / СПб.: Питйер, 2004 г.
- 2.7 Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.
- 2.8 Jo'raev A., Meyliev O., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2004. - 210 b.
- 2.9 Jo'raev T. Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari. //Soliqlar va bojxona xabarlar. – 2002 .– № 48.
- 2.10 Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iktisodiyot va huquq

- dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.
- 2.11 Zaynalov J.R. Soliqlar va soliqqa tortish. –S.: Samarqand koopyerativ instituti, 2002. – 366 b.
- 2.12 Ковал Л.С. Налоги и налогообложение. - М.: Финансы и статистика, 2001. – 254 с.
- 2.13 Latipov A. “Yerdan foydalanish va soliqqa tortish”. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005.
- 2.14 Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. – 204 b.
- 2.15 Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г.Черник. М: Юнита-Дана, 2004. – 345 с.
- 2.16 Пансков В.Г. Князев В.Г. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. –М.: МЦФЭР, 2003. – 336 с.
- 2.17 “Soliqlar va soliqqa tortish” ma’ruza matnlari to’plami. /A.Jo’raev va boshq. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. - 276 b.
- 2.18 Toshmatov Sh., Komilov M. Qo’shilgan qiymat solig’i.-T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2004
- 2.19 Тарасова В.Ф., Владика М.В., Саприкина Т.В., Семикина Л.Н. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “КНОРУС”, 2012
- 2.20 Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. /Monografiya. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. – 127 b.
- 2.21 Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной –М.: ЮНИТИ, 2003. – 350 с.
- 2.22 Xvan L.B. Soliq huquqi. - T.: Konsauditinform, 2001. y
- 2.23 Haydarov N. Moliya. T.: Akademiya, 2001. 72 b
- 2.24 Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народов», //Антология экономической классики Предисл. И.А.Столярова.-М.: МП «ЭКОНОВ», «КЛЮЧ», 1993. -588 с.
- 2.25 Краткие методологические пояснение к статистическим показателям. Ташкент – 2009 г.
- 2.26 Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va

texnologiyalar markazi, 2003. y.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

- 2.27 Qodirov B. Bevosita va bilvosita soliqlar nisbatini optimallashtirish. //Bozor, pul va kredit. – 2002. – №2.B.45.
- 2.28 Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliq siyosatini yanada takomillashtirish yo'llari. / Respublika ilmiy-amaliy konfyerentsiya matyeriallari to'plami (2005 yil 4 mart). –T.: TMI, 2006.–398 b.
- 2.29 Toshmurodova B.E. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish xususiyatlari. //J. Iqtisodiyot va ta'lim, 2005, 2-son, 52-53 b.
- 2.30 Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimi va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari. /Halqaro ilmiy-amaliy konfyerentsiya matyeriallari to'plami (2004 yil 11-12 fevral). –T.: TMI, 2004.–588 b.
- 2.31 O'rmonov J., Yu.Xodjaev. Soliq tizimini takomillashtirish-dagi ayrim masalalar. //O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini shakllantirish sharoitida budjet-soliq siyosatining dolzarb masalalari. Respublika amaliy-ilmiy konfyerentsiyasi matyeriallari to'plami. - Toshkent, 2007.-B. 81-82.
- 2.32 O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali, 2010-2012 yil sonlari.
- 2.33 Soliq to'lovchi jurnali, 2010-2012 yil sonlari.
- 2.34 Bozor, pul va kredit jurnali, 2010-2012 yil sonlari.
- 2.35 Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi. 2010-2012 yil sonlari.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

- 3.1 O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2007 yil. -T.:20084.-№5.
- 3.2 O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№10.
- 3.3 O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.
- 3.4 O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.
- 3.5 O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.

3.6 O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 yil

IV. Intyernet saytlari:

4.1 <http://www.prezident.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti

4.2 <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti

4.3 <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti

4.4 <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

4.5 <http://www.nalog.ru>-Rossiya Fedyeratsiyasi Fedyeral soliq xizmati rasmiy sayti

4.6 <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

4.7 <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.

Ilovalar